

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«TEXNOLOGIYA» FAKULTETI

«ISHLAB CHIQARISH IQTISODIYOTI» KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

«Texnologiya» fakulteti dekani

R. Raximov

«___»_____2014 y.

«HIMOYAGA QO'YILDI»

«Ishlab chiqarish Iqtisodiyoti»

kafedra mudiri

A. Sotvoldiyev

«___»_____2014 y.

“Iqtisodiyot” yo’nalishi talabasi

Sherov Shoxruh Do’stmuxammedovich

**«Uz-Tong Xong Co» qo’shma korxonasida biznes rejalashtirish
samaradorligi”**

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

A. Eraliyev.

Andijon-2014 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
« TEXNOLOGIYA» fakulteti,
«ISHLAB CHIQUARISH IQTISODIYOTI» kafedrası,
«IQTISODIYOT» yo'nalishi 2 guruh

«TASDIQLAYMAN»
« Ishlab chiqarish
iqtisodiyoti » kafedrası
mudiri A.Sotvoldiyev

«___»_____ 2013y.

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Sherov Shoxruh Do'stmuxammedovich

1. Bitiruv ishining mavzusi «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasida biznes rejalashtirish samaradorligi" №4-sonli «22» noyabr 2013 y. kafedra majlisida ma'qullangan.

2. Bitiruv ishni topshirish muddati "___" «_____» 2014 y.

3. Bitiruv ishni bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar iqtisodiy adabiyotlar va «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasining uch yillik hisobot ma'lumotlari

4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati)

I– bob. «Uz-Tong Xong CO» Qo'shma korxonasini iqtisodiy samaradorligi oshirishda biznes rejaning tutgan o'rni.

II – bob. „, “Uz-Tong Xong CO” Qo'shma korxonasining tashkiliy tavsifi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

III – bob. « Uz-Tong Xong CO» qo'shma korxonasida biznes rejalashtirish samaradorligini oshirish yo'llari.

5. Chizma ishlar ro'yxati (nomi aniq ko'rsatiladi)

1.2.1-rasm. Strategik rejalashtirish jarayoni.

1.3.1.-jadval.Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishdagi xarajatlar va resurlarning o'zaro aloqasi*

2.1.1-rasm. «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonani boshqaruv strukturasi

2.2.1 –jadval.«Uz-Tong Xong Co» Qo'shma korxonasining 2011-2013 yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2.2.2.-jadval.«Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasining ishlab chiqarish hajmi, komplekt

2.2.3-jadval.Mehnat unumdorligi tahlili

2.2.4 –jadval.«Uz-Tong Xong Co» Qo'shma korxonasining xodimlari soni,“kishi” hisobida

2.2.5-jadval.Material manbalaridan foydalanish holati tahlili.

2.2.1 - Rasm. Material sig'imi o'zgarish dinamikasi \$

2.2.6-jadval.“Uz-tong-Xong Co” qo'shma korxonasida asosiy fondlarda foydalanish holati tahlili

2.2.7-jadval.«Uz Tong Xong Co» Qo'shma korxonasining moliyaviy ko'rsatkichlari, (mln.doll)

3.1.1 - rasm. Samaradorlikni ixtiloflilik darajasiga bog'liqligi

6. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi ituvchi i. sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
.	Kirish	X.Aybeshov	20.12.2012	04.01.2013
.	Uz-Tong Xong CO» Qo'shma korxonasini iqtisodiy samaradorligi oshirishda biznes rejaning tutgan o'rni	E. Yulchiyev	08.01.2013	26.02.2013
.	Uz-Tong Xong CO» Qo'shma korxonasining tashkiliy tavsifi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	X.Aybeshov	28.02.2013	20.04.2013
.	« Uz-Tong Xong CO» qo'shma korxonasida biznes rejalashtirish samaradorligini oshirish yo'llari	E. Yulchiyev	22.04.2013	23.05.2013
.	Xulosa va takliflar	X.Aybeshov	24.05.2013	05.06.2013

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
.1.	Korxona iqtisodiyotini samaradorligini tushunchasi, uni oshirishning ahamiyati.	14.01.2013	
.2.	Korxona iqtisodiyotini samaradorligini tushunchasi, uni oshirishning ahamiyati.	04.02.2013	
.3.	Korxonani iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlar	15.03.2013	
.1.	“Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasining tashkiliy – texnik tavsifi	14.04.2013	
.2.	“Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasning asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	06.05.2013	
.3.	«Uz-Tong Xong CO» qo'shma korxonasning iqtisodiy samaradorligini oshirishda biznes rejani ta'sirining tahlili	20.05.2013	
.1.	«Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasida biznes reja ishlab chiqish jarayonida takomillashtirish	30.05.2013	
.2.	« Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasi biznes rejasi tuzilishini takomillashtirish.	30.05.2013	

Bitiruv ishi rahbari

A. Eraliyev
(f.i.sh.)

(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim

Sh. Sherov
(f.i.sh.)

(imzo)

Topshiriq berilgan sana «22» noyabr 2013 yil

**Mavzu: «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasida biznes rejalashtirish
samaradorligi**

M U N D A R I J A

Kirish.....

**I BOB. «Uz-Tong Xong CO» qo'shma korxonasini iqtisodiy
samaradorligi oshirishda biznes rejaning tutgan o'rni.....**

1.1 Korxona iqtisodiy samaradorligi tushunchasi va uni oshirishning
ahamiyati.

1.2 Korxona iqtisodiy samarasini oshirishda biznes rejaning o'rni.....

1.3 Korxonaning iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlari va
ko'rsatkichlari.....

**II BOB. “Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasining tashkiliy
tavsifi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili**

2.1 “Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasining tashkiliy – texnik
tavsifi va boshqaruv tuzilmasining
tahlili.....

2.2 “Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasning asosiy texnik
iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

2.3 «Uz-Tong Xong CO» qo'shma korxonasning iqtisodiy
samaradorligini oshirishda biznes rejani ta'sirining tahlili.

**III BOB. « Uz-Tong Xong CO» qo'shma korxonasida biznes
rejalashtirish samaradorligini oshirish yo'llari**

3.1. «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasida biznes reja ishlab
chiqish jarayonini takomillashtirish.....

3.2. « Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasi biznes rejasi tuzilishini
takomillashtirish.

Xulosa va tavsiyalar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Ilovalar.....

Kirish

« Bizning o'z oldimizga qo'ygan asosiy maqsadimiz – boshlagan islohotlarimiz, iqtisodiyotimizni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish va chuqurlashtirish, hayotimiz darajasi va sifatini izchil oshirib borishni ta'minlash, tenglar ichida teng bo'lib, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashdan iboratdir».¹

I.Karimov

Jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi xali davom etayotgan bir paytda, Evropa Ittifoqi mamlakatlaridan Grestiya, Italiya bu inqiroz botqog'iga yanada chuqurroq botayotgan davrda, mamlakatimizda inqirozdan tezroq chiqib, iqtisodiyotimizni reabilitatsiya qilishimiz uchun Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi so'zlagan nutqidan epigraf qilib olingan iqtibos, bizning keyingi yillarda qiladigan ishlarimizning dasturi bo'lib xizmat qiladi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov shu bilan birga biz borayotgan yo'limiz naqadar to'g'ri ekanligin ta'kidlab, jumladan shunday dedilar: «Ayni paytda biz o'z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to'g'ri ekanini va amalda o'zini to'la oqlaganini hayotning o'zi yana va yana tasdiqlab bormoqda».²

Aynan rejalashtirish va bashorat qilish yo'li bilan korxonalar nimani, kim uchun, qachon va qancha mahsulot ishlab chiqarish, qaysi hamkorlar yoki sheriklar bilan shartnoma tuzish yoki kooperatsiyani rivojlantirish, zarur bo'lgan moddiy-tovar boyliklari zahirasini yaratish kabi bir qator masalalarni hal qiladi.

Rejalashtirish tartibga soluvchi jarayon sifatida korxona faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berish, muayyanlashtirish va izohlab

¹ I. Karimov. «2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi». "Xalq so'zi" № 13 18.01.2014y

² O'sha joyda.

berishni ifodalaydi. Oxirgi holatda gap korxona faoliyatini bashorat qilish haqida borishi mumkin. Bashorat qilishni rejalashtirishning boshlanishi va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan davomi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Rejalashtirish va prognozashtirish o'zaro aloqada bo'lgan ikkita jarayon bo'lib, xo'jalik faoliyatini avvaldan bajarilgan hisob-kitoblar, eng kam tavakkalchilik va eng yuqori natijalarga erishish asosida yuritishni ko'zda tutadi.

Rejalashtirish indikativ reja yoki prognoz kabi rejalarni ishlab chiqish jarayoni bo'lsa, reja korxonaning ma'lum bir vaqt mobaynida amalga oshiruvchi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zida aks ettiruvchi hujjatni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, reja – bu, korxonaning maqsadli funkstiyalari va ularni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi rejalashtirishning moddiylashgan shaklidir.

Rejalashtirish ishlab chiqarishning maqbul yo'nalishlarini aniqlash, foydalanilmagan zahira va imkoniyatlarni qo'llash, korxonaning oqilona baho siyosatini shakllantirish hamda xo'jalik yuritish aloqalarining samarali shakllarini o'rnatishga ko'maklashadi. Rejalashtirish yordami bilan ichki va tashqi bozordagi iste'molchilar talabi aniqlanadi, korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati kuchaytiriladi.

Iqtisodiyot real sektori korxonalarini investition faolligini va barqaror ishlashini har tomonlama qo'llab – quvvatlash haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov va xukumatimiz tomonidan bir qancha chora – tadbirlar ishlab chiqildi. Chunki, har qanday jamiyat iqtisodiyotining rivojlanishi, aholiga sifatli mahsulot yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatishning asosiy omili korxonalarning biznes rejasining takomillashtirib erkin iqtisodiyot sharoitda muxim o'rin egallaydi.

Bunday ulkan va muxim vazifalarni samarali bajarish esa ko'plab omillarga bevosita va bilvosita bog'liqdir. Bundan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilish mumkinki, bitiruv malakaviy ishimiz uchun tanlab olingan «Uz-Tong Xong CO» Qo'shma korxonasini iqtisodiy samaradorligi oshirishda biznes rejaning tutgan o'rni mavzusi eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, iqtisodiyotning real sektori korxonalari o'rtasida raqobatni rivojlantirish, mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu masalalarni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq deb hisoblandi:

- Korxona iqtisodiyotini samaradorligini tushunchasi, uni oshirishning ahamiyatini o'rganish;
- Korxonada iqtisodiy samarasini oshirishda biznes rejani o'rni ko'rib chiqish;
- Korxonani iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlar aniqlash;
- “Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasining tashkiliy – texnik tavsif berish;
- “Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasning asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- “Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasning iqtisodiy samaradorligini oshirishda biznes rejani ta'sirini tahlil qilish;
- « Uz-Tong Xong CO » qo'shma korxonasida biznes reja ishlab chiqish jarayonida ishchi – xodimlarning ro'lini oshirish;
- « Uz-Tong Xong CO » qo'shma korxonasida biznes reja
- Yakuniy xulosa qilish va tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasida iqtisodiy samaradorligi oshirishda biznes rejaning ro'lini oshirish bo'yicha chora – tadbirlar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti – iqtisodiyotning real sektori korxonalarida iqtisodiy samaradorligi oshirishda biznes rejaning ro'lini oshirishning nazariy asoslarini o'rganish va yo'llarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlari va biznes rejaning samaradorligini oshirish sohasidagi Vatanimiz va xorijdagi olimlarning ilmiy ishlari hisoblanadi.

Mazkur ilmiy tadqiqotlarda ushbu masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Vazirlar Maxkamasining qarorlari va «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasisining moliyaviy va statistik hisobotlaridagi ma'lumotlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangilik elementlari quyidagilardan iborat:

- Korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirishda biznes rejalashtirishning nazariy asoslari ko'rsatib berilgan;
- Korxonalar biznes rejalarini ishlab chiqishda innovastion usullarni qo'llash va ularni takomillashtirish tizimini yaratish bo'yicha tavsiyalari ishlab chiqilgan;
- mazkur masalaning echimi bo'yicha aniq va ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ahamiyai shundan iboratki, ularning asosiy natijalaridan foydalanib korxonalarda biznes rejalarining samaradorligini oshirish ko'rsatkichlari, ularni tahlil qilish va oshirish bo'yicha ilmiy asoslarini o'rganish va xulosa chiqarishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi quyidagicha: kirish, asosiy mazmunni ifodalovchi sakkizta savol, xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar va web saytlar ro'yhati. Bitiruv malakaviy ishida sxemalar, jadvallardan foydalanilgan bo'lib uning mazmunini keng ochib berish imkonini beradi va Bitiruv malakaviy ishi ____ saxifadan iborat.

I BOB. «Uz-Tong Xong CO» Qo'shma korxonasini iqtisodiy samaradorligi oshirishda biznes rejaning tutgan o'rni

1. Korxona iqtisodiyotini samaradorligini tushunchasi, uning oshirish ahamiyatini

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi milliy iqtisodiyotimizda miqdor va sifat o'zgarishlariga sabab bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti jamiyatni demokratiyalashtirish, iqtisodiyot salohiyatlarini mustahkamlash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga yo'naltirilgan, bozor munosabatlariga o'tishning mamlakatimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan modeli asosida rivojlanib bormoqda. Bu model O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni islohot qilishning beshta muhim tamoyiliga asoslangan hamda xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'yektlarning erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi zaruriy qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi ushbu vazifalarning amalga oshirilishida korxonalarga katta rol ajratilib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tufayli iste'molchilarning talablarini ham qondiradilar.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, korxona bu - huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'yekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foйда) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.

Qonun foyda olish maqsadida ish olib boradigan korxonalarning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularning huquqlari va mas'uliyatini

belgilaydi, boshqa korxonalar va tashkilotlar, davlat hokimiyati, boshqaruv idoralari bilan olib boradigan munosabatlarini tartibga soladi. Shuningdek, qonunda korxona ta'rifi, turlari, vazifalari, korxonani barpo etish va uni ro'yhatdan o'tkazish tartibi, korxonani boshqarish, korxona xo'jalik faoliyatining asoslari, korxonaning ijtimoiy kafolatlari, korxona huquqlari, korxonani tugatish va qayta tashkil etish shartlari belgilab berilgan.

Huquqiy shaxs mavqeiga ega bo'lgan, mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan yoki mahsulotni ayirboshlaydigan, ishlarni bajaradigan, xizmat ko'rsatadigan, mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o'z faoliyatini amalga oshiradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yekt korxona hisoblanadi.

Korxona o'z faoliyati maqsadlarini ro'yobga chiqarishga o'z mahsuloti, ishlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni qanoatlantirish hamda ana shu asosda mehnat jamoasi a'zolarining ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini hamda korxona mol-mulki egasining manfaatlarini ta'minlash yo'li bilan erishadi. Har bir korxonada o'z faoliyatini amalga oshirish uchun moddiy, mehnat, moliyaviy, energetik va boshqa zaruriy resurslar mavjud bo'lib, korxona ularga egalik qilish, umumxalq mulkining unga tegishli bo'lgan qismidan foydalanish va boshqarish huquqiga ega.

Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vazifasi aholini turli xalq iste'moli mollari, maishiy va madaniy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirishdan iboratdir.

Ishlab chiqarish korxonasini harakterlovchi asosiy belgilari uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning, ishlab chiqarishning texnikaviy birligi va korxonaning iqtisodiy birligidir. Korxonaning ishlab chiqarish texnikaviy birligi deb, uning barcha tarkibiy qismlarining bir-biri bilan ishlab chiqarish jarayonlarida ma'lum ketma-ketligda bajarilishiga ko'ra bog'langanligi va bir-birini o'zaro ta'minlashiga aytiladi. Har bir korxona bir qator tarkibiy qismlar (sex, uchastka)dan iborat. Har bir qism (sex, uchastka) xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantirish jarayonining

ma'lum vazifalarini bajaradi. Ularning maqsadi ishlab chiqarish dasturini sifatli bajarishga qaratilgandir.

Korxonaning iqtisodiy birligi deganda, uni tashkil qiluvchi barcha tarkibiy qismlari korxonaning markazlashgan omboridan sexlarga reja asosida materiallar yetkazib berishni ta'minlashi tushuniladi.

Har qanday korxonaning maqsadi uning faoliyati asosida avvaldan o'ylangan pirovard natijaga erishishdir. Korxona o'z oldiga ongli ravishda maqsad qo'yib, fikriy model yarata oladi va ob'ektiv sharoitlarni hisobga oladi.

Korxonalar o'z maqsadlariga erishish uchun ma'lum vazifalarni bajaradilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu vazifalar:

- iste'molchilarning o'sib kelayotgan talablariga muvofiq yuqori sifatli mahsulotlar yetkazib berish;
- mehnat unumdorligini uzluksiz ravishda oshirib borish;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish;
- rejada belgilangan topshiriqlarni o'z vaqtida va yuqori darajada bajarish;
- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan unumli foydalanish;
- aylanma mablag'lardan foydalanishni yaxshilash;
- xom ashyo, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish;
- muntazam ravishda mahsulot tannarxini pasaytirib, korxona rentabelligini oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida, Mulkchilik to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi 1991 yil 15 fevraldagi qonuni hamda 1993 yil 7 may; 1994 yil 23 sentyabr; 1995 yil 31 avgust; 1996 yil 27 dekabr; 1997 yil 25 aprel; 1997 yil 30 avgust; 1998 yil 1 may; 1998 yil 29 avgustdagi qonunlariga binoan kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarda mulkchilikning barcha shakliga mansub korxonalarni barpo etish, ularning faoliyatini qayta tashkil etish va tugatishning umumiy va huquqiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy asoslari belgilab berilgan.

Qonunlariga binoan kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalarda belgilab qo'yilgan mulk shakllariga muvofiq quyidagi turdagi korxonalar respublikamiz qonun hujjatlariga zid bo'lmagan holda tashkil qilinishi va o'z faoliyatini olib borishi mumkin.

1. Jismoniy shaxslarning xususiy mulkiga asoslangan:

- Jamoa, shirkat mulkiga asoslangan jamoa, oila, mahalla korxonalari, ishlab chiqarish kooperativlari;
- Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlariga qarashli korxonalar;
- Jamoa tashkilotlarining korxonalari;
- Diniy tashkilotlarning korxonalari va jamoa mulkchiligining boshqa shakllariga asoslangan korxonalar.

2. Davlat mulkiga asoslangan respublika davlat korxonasi: viloyatlararo, viloyat, tumanlararo, tuman, shaharlararo, shahar, davlat korxonasi va davlat korxonalarining boshqa turlari;

3. Mulkchilikning aralash shakliga asoslangan davlatlararo, qo'shma va turli mulk shakllarining to'liq yoki ulushli ishtiroq etishiga asoslangan boshqa korxonalar.

Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxona ishlovchilar soniga qarab kichik yoki o'rta korxonalar jumlasiga kiritilishi mumkin. Bunday korxonalarni tashkil etish va ular faoliyatining o'ziga xos jihatlari, maqomi, ularni ro'yhatga olish shartlari, shuningdek korxonalarni bu turga kiritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tartibga solib turiladi.

Korxonalar o'z huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash, tegishli davlat idoralari va boshqa idoralarda, shuningdek, xalqaro tashkilotlarda umumiy manfaatlarini ifoda etish maqsadida xo'jalik uyushmalariga: assotsiastiya, konstern va boshqalarga uyushishlari mumkin.

Assostiastiya - o'z ixtiyori bilan birlashgan qo'shma korxona bo'lib, uning asosiy vazifasi xo'jalik faoliyatini birgalikda va o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlash asosida amalga oshirishdir. Assostiastiyaga a'zo bo'lganlar o'zining

asosiy va aylanma fondlari, pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlari bilan o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.

Assostiastiyaning nizomi-uning ta'sis hujjati bo'lib hisoblanadi. Assostiastiya tarkibiga kiruvchi turli konstern sohalararo davlat birlashmasi, xo'jalik assostiastiyasi, davlat konsorstiumlar assostiastiya rahbarlari organlarining joylashgan o'rne, ularning asosiy vazifalari, huquqlari, majburiyatlari, a'zolik tamoyillari va boshqalar ko'rsatilgan assostiastiya nizomi mahalliy hokimiyat tomonidan tasdiqlanadi. Islohotlarning birinchi bosqichida korxonalar o'z faoliyat sohalariga qarab ixtiyoriy ravishda davlat tarmoq konsternlariga birlashtiriladi. Bu nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qoladi, balki uning rivojlanishiga yangi turtki berish uchun ham imkoniyat tug'diradi.

Korxonalarning iqtisodiy mustaqilligi kengayib borgan sari davlat konsternlari tarmoq uyushmalariga aylantiriladi. Ularning boshqaruv apparatlari esa, o'z tarkibidagi birlashmalar va korxonalarning ixtiyoriy ravishda bergan puli hisobidan ta'minlanadi.

Korxona va tashkilotlar qaysi idoraga bo'sunishidan va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar o'z iqtisodiy manfaatlarini rag'batlantirish maqsadida konsternlar, uyushmalar va korporastiyalar tarkibiga ixtiyoriy ravishda kiradi. Ular o'z faoliyatini pay va kirish badallari, ishtiroqchilarning akstiyalar to'plamini sotib olish asosida yo'lga qo'yadi.

Bozor munosabatlari davrida uyushmalar, konsternlar, korporatsiyalar va boshqa uyushmalarning asosiy vazifasi respublika xalq xo'jaligini ishlab chiqarilayotgan mahsulotning aniq turlari bilan ta'minlash, yagona ilmiy-texnikaviy va investitsiya siyosatini o'tkazish, ichki va tashqi bozorlar holatini o'rganish, tarmoqda bozor munosabatlarini rivojlantirishdir. Shuningdek, «Konstern, korporastiya va boshqa uyushmalarning vazifasi, - deb yozadi I.A.Karimov, davlat korxonalarini hamda tashkilotlarini nodavlat mulkiga aylantirish ishlarini tashkil etish, tadbirkorlikning rivojlanishini butun choralar bilan qo'llab-quvvatlashdan iborat». Bulardan tashqari xo'jalik birlashmalari o'z muassasalarini huquqiy himoya qilishni ta'minlaydi, davlat, mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv

organlarida ularning qonuniy manfaatlarini ifodalaydi, tarmoqni rivojlantirish strategiyasini belgilaydi.

Korxonani tashkil etish va ularning faoliyati bilan bog'liq munosabatlar «Korxonalar to'g'risida»gi qonun va uning asosida chiqariladigan boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Korxonani tashkil etishning umumiy shartlari shulardan iboratki, mol-mulk egasi yoki u vakil qilgan idora, korxona, tashkilot qaroriga yoki mehnat jamoasining qaroriga muvofiq, shuningdek ta'sis etuvchilar guruhi va ayrim ta'sis etuvchi shaxslar qarori bilan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda barpo etiladi.

Korxonani tashkil etish va uning faoliyatini olib borish uchun er uchastkalari, tabiiy resurslardan foydalanish ko'zda tutilgan hollarda tegishli davlat hokimiyat idoralari (shahar, tuman, tuman arxitektura bo'limlari)dan, tabiatdan foydalanuvchi tegishli tashkilot tomonidan ekologiya ekspertizasi xulosasi asosida foydalanishga ruxsatnoma olinadi. Shuningdek, korxona ishlab turgan korxonalar, tashkilotlar tarkibidan mehnat jamoasi tashabbusi bilan bir necha tarkibiy bo'linmalarga ajratish yo'li bilan ham tashkil qilinishi mumkin.

Korxona O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda korxona joylashgan joydagi mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan davlat ro'yhatidan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida «Iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa, eng avvalo, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini qisqartirish, korxonalarning xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklashdan iborat. Ayniqsa, xususiy biznesga, umuman, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga ko'proq erkinlik berish zarur. Buning uchun tegishli huquqiy zamin, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlarni yaratishimiz kerak», - deb ta'kidlagan edi. Jumladan, tadbirkorlik subektlarini davlat ro'yhatidan o'tkazish bu tashkiliy jihatdan dastlabki va muhim ahamiyatga ega bo'lgan muhim jarayondir. Respublikamizda oxirgi yillarda kichik biznes va xususiy korxonalar faoliyatini rivojlantirish va uning samarali faoliyat

ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qulay huquqiy muhitni shakllantirish, tadbirkorlik subektlarini davlat ro'yhatidan o'tkazish mexanizmlarini imkon qadar soddalashtirish maqsadida qator qonunlar qabul qilindi, mavjudlariga o'zgartirishlar kiritilib, yanada takomillashtirildi.

1.2. Korxona iqtisodiy samaradorligini oshirishda biznes rejaning o'rni

Ishlab chiqarish samaradorligi har bir korxona faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Afsuski, bozor sharoitlarida "samaradorlik" tushunchasi, garchi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o'sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasada, baho, foyda, daromad, xarajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qo'llanilmoqda. Samarali ishlash degani o'z mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

“Samara”, “samaradorlik”, “ ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik” kabi tushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur.

Samara – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifastiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo’q qilish bilan bog’liq bo’lgan korxona faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda *ishlab chiqarish samarasini*, pul shaklida esa *iqtisodiy samarani* tavsiflaydi.

Samaradorlik, avvalo, korxona faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

Samaradorlik chora sifatida ko’plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo’jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o’zining xo’jalik, ilmiy-texnik va investistion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma’noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo’jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar(ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo’lsa (mahsulot sifatiga ta’sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o’rtasidagi farqni yo’qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o’zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o’sishi, aholi sog’lig’ining yaxshilanishi va umr ko’rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga

yordamlashadi. Masalan, foydaning o'sishi, jamg'armalarning ortishi korxonaga ijtimoiy vazifalar doirasini kengaytirish va ularni hal qilish imkonini beradi.

Biroq samaradorlik va uning asosiy ko'rsatkichi - foyda (daromad) o'z-o'zidan, avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Turli korxonalarda samaradorlikka erishish uchun mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda, turli vosita va yo'llardan foydalaniladi. Bunda vaqt omili, ya'ni samaradorlikka qisqa yoki uzoq muddatlarda erishishni mo'ljallash, asosiy ro'llardan birini o'ynaydi. Masalan, korxona olayotgan foydasini qisqa vaqt mobaynida mahsulot sifatini yaxshilashni mablag' bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va modernizastiya qilish, xodimlar malakasini oshirishga ajratilayotgan mablag'larni kamaytirish yo'li bilan ko'paytirishi mumkin. Uzoq muddatli rejalarda esa bu, foydaning kamayishiga va hattoki korxonaning bozordagi o'rnini yo'qotishi natijasida bankrotga uchrashiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy firma va korxonalar o'z faoliyatlarida samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish texnika va texnologiyalariga e'tiborni kuchaytirishdan tashqari, mahsulot sifatini oshirish va uni reklama qilishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Masalan, Yaponiyaning "Omron" firmasi o'ziga "Barchaning yaxshi hayoti, yaxshi dunyo uchun" degan iborani shior qilib olgan. Amerikaning "Katerpillar" kompaniyasining shiori "Dunyoning har bir burchagida 48 soat xizmat ko'rsatish" bo'lsa, "Ribok" firmasi "Yaxshi bahodagi narx" iborasini shior qilib olgan. Bunday misollardan yana bir nechtasini keltirib o'tish mumkin.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, samara va samaradorlik qotib qolgan kategoriyalar qatoriga kirmaydi hamda faqatgina pul ko'rinishida o'lchanmaydi. Samaradorlik va sifatli mehnat tufayli korxona *birinchidan*, o'zining iqtisodiy barqarorligi va bozordagi raqobatchilikka bardosh berishini ta'minlaydi, *ikkinchidan*, o'z imidjini yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlaydi, *uchinchidan*, xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi. Demak, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini qidirish, xarajat va natijalarni to'g'ri solishtirish, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa

tegishliligi, hududiy joylashishi va faoliyat turidan qat'i nazar, har bir korxona uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Rejalashtirish bozor bilan umuman mos kelmaydi, deb hisoblagan bozor munosabatlari tarafdorlari ham bugungi kunda o'zlarining avvalgi fikrlarida qattiq turmayptilar. Vaqt va xayotning o'zi, xususan, ko'plab xorijiy kompaniya, firma va korxonalar tajribalari rejalashtirish va bashorat qilishning muxim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydilar.

Gap shundaki korxona bu nafaqat bozor sub'yektidir, u shu bilan bir paytda davlat tizimining elementi ham hisoblanadi. U davlat boshqaruv tizimi va siyosatidan to'liq mustaqil bo'la olmaydi. Iqtisodiyoti markazlashgan mamlakatlarda bozor munosabatlarini erkinlashtirish yo'nalishida amalga oshirilgan islohotlar ishlab chiqarish jarayonini chetlab o'tib, shu bilan bir paytda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalarda mehnat motivatsiyasi va rejalashtirish tizimini sezilarli ravishda o'zgartirib yubordi.

Natijada korxonada rejalashtirishning asosiy vazifasi rejani bajarish va oshirib bajarishga qaratilgan bo'lib, bu narsa qaysi yo'llar bilan, nimalar evaziga erishilishi unchalik ahamiyat kasb etmagan. Bu esa, o'z navbatida, ko'plab korxonalar rahbariyatini quyidagi yo'nalishlardan birida xarakat qilishga undagan:

- 1) yuqori turuvchi boshqaruv organidan bajarish oson bo'lgan topshiriqlar olishga intilish;
- 2) olingan topshiriqni iqtisodiy va ijtimoiy zara keltirsada, xar qanday narx evaziga bajarish.


Ushbu nozik jixatlarni bir chetga qo'yib turamiz, chunki hozir boshqa payt, boshqa xo'jalik tizimi. Iqtisod sohasi mutaxassislarining ta'kidlashicha, butun rejalashtirish va boshqaruv tizimi xodimlarning ish sifati va samaradorligini oshirishdan manfaatdorligiga yo'naltirilishi lozim bo'lib, bu firma rivojlanishining muxim sharti hisoblanadi. Biroq bu xuddi boshqa muvaffaqitlar kabi o'zidan-o'zi kelmaydi. Buning uchun resurslar asoslaridan tashqari muhim tashkilotchilik, ilmiy asoslangan rejalashtirish va boshqaruv talab qilinadi. Ayniqsa kishilarning ishlab chiqarish mehnatidan moddiy manfaatdorligi muxim ahamiyat kasb etib, bugungi

kunda bu mehnat xayoti sifati deb nomlanadi.

Masalan, Janubiy Koreyaning «DEU» transmilliy firmasi rahbari Kim U Jung ta'kidlashicha: «biznesda odam boshqa xech qaerda bo'lmagan axamiyatga ega. Inson–xamma narsadan yuqori. U buyuk kuchdir. Shu sababli kompaniyalar tobora ko'proq kadrlar bilan yuog'liq masalalarga e'tibor qaratmoqdalar. Chunki umuman olganda odamlar ishlaydilar. Firmaning gullab-yashnashi yoki inqirozga uchrashi ularga bog'liq»¹. Shu sababli bo'lsa kerak, Yaponiya firmasi «Mastusita» quyidagi shiorni tanlab olgan: «narsalarni yaratishdan avval «Mastusita» kadrlarni yaratadi»³.

Bugungi kunda O'zbekistonda turli mulkchilik shaklidagi, turli soha va tarmoqlarga taalluqli 300 mingdan ortiq korxona mavjud bo'lib, ulardan 280 mingtasi kichik va o'rta biznes xamda xususiy tadbirkorlik sub'yektlari hisoblanadi. Ularning ishlab chiqarish faoliyati, shubxasizki, rejalashtirish va boshqarish ob'ekti bo'lib, bozorga va iste'molchilar talabini qondirishga yo'naltiriladi.

Amaliyotning ko'rsatishicha, ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishda xar bir korxona o'zining bugungi kundagi va kelajak uchun strategiyasini belgilab oladi. Shu sababli rejalashtirish korxonani rivojlantirish strategiyasidan ajralmas bo'lib, buni quyidagi sxema yordamida aks ettirish mumkin.



1.2.1-rasm. Strategik rejalashtirish jarayoni

Mazkur holatda strategiya kelajak uchun umumiy g'oyani shakllantirishga imkon berdi. Rejalashtirish jarayonining o'zi va bevosita strategik reja esa

¹ Kim U Djung. Etot velikiy mir biznesa. M., «Ruslit», 1992, s. 106.

³ Yakokka Li. Karera menedjera. M., «Progress», 1990, s.17.

korxonaga aniqlik, individuallik xadya etib, bu unga ma'lum turdagi xodimlarni jalb qilish va boshqa turdagi xodimlarni jalb qilmaslikka imkon beradi. Bu reja korxona uchun istiqbollar ochib berib, yangi xodimlarni jalb qiladi, mahsulot ishlab chiqarishdan tashqari uni sotishga ko'maklashadi.

Rejalar shunday tuzilishi kerakki, ular uzoq vaqt davomida buzilmasligi, shu bilan bir paytda zarur hollarda yo'nalishni o'zgartirishga moslashgan bo'lishi lozim. Amalda rejalashtirish jarayonida ikkita muxim savolga javob topish zarur:

1) korxona uchun bozordagi vaziyat bilan bog'liq joriy vazifalarni bajarishda to'siqlar yaratmaydigan strategik maqsadni qanday tanlash;

2) strategik maqsadlarga tayangan holda eng murakkab va kutilmagan xodisa va tashqi tendensiyalarga munosib va samarali javob qaytarishi uchun moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslarini qanday shakllantirish lozim.

Avvalgi buyruqbozlik tizimidagidan farqli o'laroq ko'plab korxonalarda, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalarda rejalar mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Biroq korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish xuddi avvaldagi kabi ko'rsatkichlar tizimi yordamida amalga oshirilib, bu ko'rsatkichlar sifat va miqdor, hajm va solishtirma turlarga taqsimlanadi.

Miqdor ko'rsatkichlari – absolyut ko'rsatkichlar bo'lib, bu qatorga yalpi va tovar mahsulotlar hajmi, sotuv hajmi, xodimlar soni, ish xaqi fondi, foyda yoki daromad miqdori, ishlab chiqarish resurslarining sarflanishini kiritish mumkin.

Sifat ko'rsatkichlari nisbiy kattalik hisoblanadi. Ular ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini, uning ayrim omillarini aks ettiradi. Bu mehnat maxsuldorligining o'sishi, mahsulot tannarxining pasayishi va xokazolardir. Bu qatorga shuningdek, o'zaro miqdor ko'rsatkichlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar, masalan, ishlab chiqarish rentabelligi, fond sig'imi, mahsulot sifati va boshqalarni xam kiritish mumkin.

Hajm ko'rsatkichlari ishlab chiqarishning, uning ayrim jarayonlari va unda ishtiroq etuvchi omillarning absolyut kattaligini belgilaydi. Bu qatorga masalan, yalpi, tovar va sotilgan mahsulot hajmi, mehnat xarajatlari hajmi, olingan foydaning umumiy hajmi va boshqalar kiritiladi.

Solishtirma ko'rsatkichlar ikki yoki undan ortiq o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar va mahsulot birligi xarajatlari salmog'ining nisbatlarini tavsiflaydi. Masalan, mahsulot birligiga metall, elektr energiyasi, yoqilg'i sarflanishi, ishlab chiqarish quvvati birligiga kapital qo'yilmalar, jami to'lovlar hajmida mukofotlarning salmog'i va xokazolar.

Ushbu barcha ko'rsatkichlar o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud. Bu ko'rsatkichlar rejalashtirish jarayonida xam, korxonaning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda xam qo'llanadi.

1.3. Korxonani iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlar.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – korxona rahbariyatining doimiy vazifasidir. Bu vazifani echish amaliyotda quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi:

- bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta'minlovchi, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;
- iste'molchilar talabini qondirishga yo'naltirilgan mahsulotni sotish va yuqori daromad (foyda) olish;
- aylanma vositalarni tejash imkoniyatini yaratuvchi optimal ishlab chiqarish zahiralari yaratish.

Xo'jalik samaradorligini oshirish omillarining yuqorida sanab o'tilgan har biri, faoliyat yuritishning turli shakl va ko'rinishlari yordamida, ishlab chiqarish samaradorligi asosida yotuvchi xarajatlar va resurslarning o'zaro aloqasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi (1.3.1.- jadval).

1.3.1.-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishdagi xarajatlar va resurslarning o'zaro aloqasi*

Moddiy va buyumlashgan shaklda		Pul shaklida	
Resurslar	Xarajatlar	Resurslar	xarajatlar
Ishchi kuchi soni	Mehnat (sifat va miqdor)	Mehnat haqi fondi	To'langan oylik miqdori, jumladan, mukofot va qo'shimchalar
Bino, inshoot, mashina va uskunalar (mehnat quro'llari)	Mehnat quro'llarining eskirishi	Asosiy kapital	Amortizatsiya ajratmalar
Mehnat predmetlari	Iste'mol, talab, materiallar, yoqilg'i, energiya va hokazo	Aylanma kapital	Sarflangan xom ashyo, material va hokazolar qiymati
Tayyor mahsulot	Dizayn, reklama, qadoqlash, tovar yo'qotishlari	Muomala fondlari	Qo'shimcha xarajatlar (qiymat)
-	-	Pul mablag'lari	Kredit uchun foiz

* Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari - T.: «Mehnat», 1997.

Xo'jalik samaradorligini baholash, korxonada foydalaniladigan resurs turlari bo'yicha amalga oshirilishi va miqdor jihatidan o'lchanishi mumkin. Masalan, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini mehnat unumdorligi va mahsulotning mehnat sig'imi ko'rsatkichlari yordamida quyidagi formula asosida baholash mumkin:

$$ITT = \frac{Q}{\varphi} \quad (1.3.1)^4$$

Bu erda:

PT - mehnat unumdorligi;

Q - mahsulot hajmi qiymat ko'rinishida;

Ch - ishlovchilar (ishchilar) soni.

Mahsulotning mehnat sig'imi mehnat unumdorligiga teskari kattalik bo'lib, sarflangan mehnat miqdorining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$T = \frac{\varphi}{Q} \quad (1.3.2)^5$$

Mehnat quro'llari (asosiy fondlar)dan foydalanish samaradorligi mahsulotning fond sig'imi va fond qaytimi ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Bunda fond qaytimi korxona asosiy fondlarining bir birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulotni anglasta, fond sig'imi esa fond qaytimiga teskari kattalik bo'lib, yangi asosiy fondlarni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan kapital qo'yilmalarni aniqlash vazifasini bajaradi.

Fond qaytimi (F_o) va fond sig'imini (F_e) aniqlash formulasi quyidagicha:

$$f_o = \frac{Q}{\Phi} \quad (1.3.3)^6$$

⁴ Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari - T.: «Mehnat», 1997.

⁵ O'sha joyda

⁶ O'sha joyda

Bu erda:

Q - mahsulot hajmi, qiymat pul ko'rinishida;

F – asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati.

$$fe = \frac{\Phi}{Q} \quad (1.3.4)^7$$

Fond qaytimi qanchalik yuqori va fond sig'imi qanchalik past bo'lsa, ishlab chiqarish va mehnat quro'llaridan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha. Mashina va uskunalaridan unumli foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish hamda xodimlar malakasini oshirish, fond qaytimini ko'paytirishning muhim zahirasi hisoblanadi.

Mehnat quro'llaridan foydalanish samaradorligi, mahsulotlarning material sig'imi yordamida sarflangan xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va mehnat predmetlarining umumiy qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi. Uning formulasi quyidagicha:

$$m = \frac{M}{Q} \quad (1.3.5)^8$$

Bu erda:

m - mahsulotlarning material sig'imi;

M - mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan moddiy xarajatlarning umumiy miqdori pul ko'rinishida;

Q - ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, qiymat ko'rinishida.

Mahsulotning material sig'imi qanchalik past bo'lsa, ishlab chiqarish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Biroq mahsulot material sig'imini kamaytirish, uning sifatini pasaytirish yoki texnologiya norma va qoidalarini buzish

⁷ Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari - T.: «Mehnat», 1997.

⁸ O'sha joyda

hisobiga amalga oshirilmasligi lozim. Material sig'iminin bu tarzda kamaytirilishi iqtisodiy jinoyat hisoblanadi va qonunga asosan jazoga tortiladi.

Bozor sharoitlarida korxona xo'jalik faoliyati samaradorligining umumlashtiruvchi yoki mezon ko'rsatkichi sifatida rentabellik yoki kapitalning daromadlilikini qabul qilish mumkin. Bu ko'rsatkich quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$R = \frac{P}{A} * 100 \quad (1.3.6)^9$$

Bu erda:

R - rentabellik, xo'jalik faoliyatining natijasini foyda shaklida ko'rsatadi va foizlarda o'lchanadi;

P - korxonaning balans foydasi;

A - avanslangan kapital(asosiy va aylanma).

Nisbatning kattalashishi mehnat, moliya, texnologiya va moddiy resurslaridan unumliroq foydalanishni anglatadi. Chunki aynan ular ishlab chiqarish hajmi va xarajatlari, mahsulot bahosiga ta'sir o'tkazadi. Xo'jalik faoliyati minimal xarajatlar bilan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan joylarda samaraliroq bo'ladi.

Korxona rentabelligini aniqlashda ba'zida korxona olgan umumiy foyda emas, balki mahsulot tannarxini pasaytirish hisobiga olinuvchi foyda ulushidan foydalaniladi. Bunday yondashuv korxonani ishlab chiqarish mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan tejamkorlik bilan rastional tarzda foydalanish, natijada esa mahsulot ishlab chiqarishga sarflanuvchi barcha xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar sari chorlaydi. Yuqorida keltirilgan xo'jalik samaradorligini baholash usullari va ko'rsatkichlaridan tashqari bugungi kunda amaliyotda O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan korxonalarning iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlash

⁹ Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari - T.: «Mehnat», 1997.

uchun mezonlar tizimi ham qo'llaniladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- * to'lov qobiliyati ko'effitsienti (K_{pl});
- * xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati ko'effitsienti (K_{ss});
- * moliyaviy mustaqillik ko'effitsienti (K_{fn});
- * xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik ko'effitsienti (K_{os});

Bu ko'rsatkichlar bir qarashda mahsulot ishlab chiqarish sohasiga, demak, ishlab chiqarish samaradorligiga aloqasi yo'qday tuyuladi. Aslida esa aynan ular orqali korxonaning samarali faoliyatini anglatuvchi iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik aks ettiriladi. Bundan tashqari, mahsulotning material sig'imi, fond qaytimi, mehnat unumdorligi va rentabellik ko'rsatkichlari, ishlab chiqarishni rejalashtirish va tahlil qilishda qo'llansa, mezonlar tizimi yordamida esa korxonalar o'zlarining faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi hamda turli xil muammoli vaziyatlarda xo'jalik sudlarida o'z manfaatlarini himoya qiladi.

To'lov qobiliyati ko'effitsienti (K_{pl}) korxonaning debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish hamda tayyor mahsulot va boshqa moddiy vositalarini sotishning qulay sharoitlarda sotish orqali baholanadigan to'liq imkoniyatlarini ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{n.n} = \frac{A_2 - P_{dz}}{P_2 - D_{zk}} \quad (1.3.7)^{10}$$

Bu erda:

A_2 – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zahiralar, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va hokazolar);

P_2 – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzlari, qisqa muddatli kreditlar, byudjet oldidagi qarzlari, kreditorlik qarzlari va hokazo);

¹⁰ Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari - T.: «Mehnat», 1997.

P_{dz} – muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlari;

D_{zk} – uzoq muddatli qarz va kreditlar.

Xususiyy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti (K_{ss}) ularning shakllanish manbalarini inobatga olgan holda, pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{ss} = \frac{P_1}{P_2 - d_{zk}} \quad (1.3.8)^{11}$$

Bu yerda:

P_1 – xususiyy mablag'lar manbalari (Nizom jamg'armasi, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va hokazo).

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti (K_{fn}) korxona moliyaviy mustaqilligining kamayishi (ko'payishi), kelajakda moliyaviy qiyinchiliklarga uchrash xavfining kuchayishi (pasayishi) haqida ma'lumot beradi hamda korxona o'z majburiyatlari oldida javob berishining kafolatlarini belgilab beradi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{fn} = \frac{P_1}{IB} \quad (1.3.9)^{12}$$

Bu erda:

IB - korxona balansi aktivi yoki passivining yakuni.

Xususiyy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K_{os}) korxonaning barqaror ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan aylanma vositalar mavjudligini tavsiflaydi. Shuningdek u, korxona egalari va kreditorlar manfaatlaridagi munosabatlarni ham aks ettiradi. Mazkur koeffitsient quyidagi formula asosida hisoblanadi:

¹¹ Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari - T.: «Mehnat», 1997.

¹² O'sha joyda

$$K_{os} = \frac{P_1 - A_1}{A_2} \quad (1.3.10)^{13}$$

Bu erda:

A_1 – uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, nomoddiy aktivlar va hokazo).

Ko'rsatkichlar tizimini tayyorlagan mualliflar tomonidan korxonaning to'lovga qobiliyatligi yoki nochorligini aniqlovchi parametrlar belgilab berilgan. Masalan, to'lov qobiliyati koeffitsienti hamda xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsienti 2 dan kichik bo'lsa ($K_{pl} < 2$; $K_{ss} < 2$), moliyaviy mustaqillik koeffitsienti 0,5 dan kichik bo'lsa ($K_{fn} < 0,5$), xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti 0,1 dan kichik bo'lsa ($K_{os} < 0,1$) korxonalar nochor deb topiladi. Korxona nochorligi, demak, xo'jalik faoliyatining samarasizligi to'g'risidagi yakuniy qaror, nochorlik parametrlarining umumiy summasi 4,6 dan kichik bo'lgan holda qabul qilinadi.

Xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish juda ham murakkab jarayon bo'lib, buning hamma uchun to'g'ri keluvchi yagona yo'li mavjud emas. Har bir korxona bu masalani echishda o'z imkoniyatlari va yuzaga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda harakat qiladi. Biroq barcha hollarda ham samaradorlikning asosida foydani maksimallashtirish yoki xarajatlarni minimallashtirish yotadi.

Biroq ishga bunday yondashishning, bugungi bozor munosabatlari sharoitlarida keng tarqalgan bunday usulida, ya'ni eng ko'p foydaga ega bo'lish tamoyili asosidagi usulda, korxona foydani maksimal darajaga chiqarsada, ishlab chiqarishni kengaytirishga erisha olmaydi. Ishlab chiqarishni kengaytirish esa, barchaga ma'lum bo'lganidek, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun eng muhim talablardan biri hisoblanadi.

¹³ Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari - T.: «Mehnat», 1997.

II BOB. “Uz-Tong Xong CO” Qo’shma korxonasining tashkiliy tavsifi va iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili

2.1 “Uz-Tong Xong CO” qo’shma korxonasining tashkiliy – texnik tavsifi va boshqaruv tuzilmasining tahlili

"Uz Tong Xong Co" MChJ shaklidagi O'zbekiston-Koreya qo'shma korxonasi 1995 yilning dekabr oyida tashkil topgan. Korxonaning chet ellik sherigi Janubiy Koreyaning "KM&I Co. Ltd" kompaniyasi hisoblanadi. Korxonaning asosiy mahsulot ishlab chiqarish turi engil avtomobilar o'rindiqlari ishlab chiqarishdir. 2009 yildan boshlab Samarqanddagi "Samaavto" avtobus zavodi uchun ham o'rindiqlar yetkazib berishni boshladi.

2009 yilning sentyabr oyidan boshlab basketbol to'plarini ishlab chiqarish yo'lga quyildi. 2011 yilning yanvar oyidan esa Kobalt modeli uchun va 2011 yilning avgust oyidan esa Spark va Lacetti modellari uchun o'rindiqlar tayyorlash boshlandi.

2012 yilning oktyabr oyidan ISO 16949 sifatni sertifikatlash tizimi kiritildi. 2013 yilning sentyabr oyidan sport oyok, kiyimlari tayyorlandi. 2013 yilning yanvar oyidan tiquv liniyasini naladkasi yakunlandi.

Korxona 2011 yili 215 ming komplekt o'rindiqlar ishlab chiqargan bo'lsa, 2012 yili 219 ming komplekt o'rindiq ishlab chiqargan. 2013 yilga kelib 229 ming komplekt avtomobil o'rindiqlari ishlab chiqargan. Korxonaning asosiy mahsulot turlari Nexia, Damas, Matiz, Spark, Lacetti, Cobalt, Orlando avtomashinalari uchun o'rindiqlar tayyorlash.

Korxona mahsulotlarini asosiy iste'molchisi "Dji Em O'zbekistan" Qo'shma korxonasi hisoblanadi. Korxonaning umumiy maydoni : 29,737 m tashkil etadi. Ishlab chiqarish sexlarining maydoni 14,256 m ga teng. Yig'uv liniyasining umumiy maydoni 1,650 m². Avtosklad 900 m², PPU Yig'uv liniyasi: 2,350 m , ishlab chiqarish ofisi maydoni : 1,300 m , tiquv sexining maydoni 1,300 m ga teng.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va texnologik jarayonlari.

Ishlab chiqarish quvvati korxonaning mavjud jixoz va qurilmalar quvvati va ish vaqtidan to'liq foydalangan holda bir yilda ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmini aniqlaydi. Korxonaning yillik ishlab chiqarish quvvati 300.000 komplekt avtomobil o'rindiqlari ishlab chiqishdan iborat.

2002 yili Matiz modeli uchun o'rindiq tayyorlash ishlari boshlandi. 2006 yilning mart oyida integrastiyalashgan tizim yaratildi. 2009 yilning iyul oyidan boshlab ishlab chiqarish modernizastiyalashtirilib, yiliga 300 ming komplekt o'rindiqlar tayyorlash darajasiga erishildi.

Ishlab chiqarish quvvatidan qancha to'liq foydalanilsa, vaqt birligi ichida ishlab chiqaradigan mahsulot miqdori shuncha ko'p bo'lib, mahsulot tannarxi pasayishga olib keladi va qisqa muddat ichida zamonaviy jixozlar sotib olish uchun kapital mablag' yig'iladi. Korxonada o'rnatilgan harakatdagi jixozlardan mumkin qadar rastional foydalanib, mahsulot miqdorini oshirish yangi kapital jamg'armaga eqtiejni kamaytiradi.

Hisoblangan ishlab chiqarish quvvati va uning foydalanish koeffitsienta asosida rejalangan davrda ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish dasturini rejalashtirish, o'tgan yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, sotilgan mahsulot miqdori va yil oxirida sotilmay qolgan qoldiq (natural yoki pul hisobida) ni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Ishchi mashinalari - bu mehnat quroli bo'lib, ularning vazifasi material shaklini o'zgartirish predmet o'lchami va agregat holatini o'zgartirish, harakatga keltirish va vaqtincha bir joyga yig'ishdan iborat. O'lchov va to'g'rilash, laboratoriya, nazorat va ulchash asboblari, mashina va apparatlar tarkibiga kirmaydi. Ular laboratoriya va tajriba bo'limlarida tajriba va materiallarni sinash uchun ishlatiladi.

Transport vositalari - mehnat predmetini siljitish, tayyor mahsulotlarni omborlarga tashish, yarim fabrikatlarni bir operastiyadan ikkinchi operastiyaga o'tkazib berish va tayyor mahsulotni omborlardan buyurtmachiga yuklab berish uchun xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish bo'linmalarining tarkibi, ularning o'lchamlari va uzviy bog'liqligi korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini tashkil etadi. Sex korxonaning alohida mustaqil bo'limi bo'lib, unda mahsulot ishlab chiqarishning aniq bir texnologik jarayonni amalga oshiriladi, sexdagi ish ma'lum sondagi ishchilar jamoasi tomonidan bajariladi. Sexning yana bir hususiyatlaridan biri, uni yagona boshliq boshqaradi.

Sex - korxonaning ishlab chiqarish jarjarayonida aniq belgilangan funkstiyaga ega bo'lgan, ma'lum belgisi (texnologik, predmet yoki funkstional) ga ko'ra ma'muriy jixatdan alohida bo'lgan ishlab chiqarish bo'linmasining bir qismidir.

Sexlar yuqorida ko'rganimizdek, bir necha to'rtga bo'linib, uning asosiy vazifasi hajmi va sifati bo'yicha reja topshiriqlariga muvofiq belgilangan nomenklatura (assortiment)dagi mahsulotni tayyorlashdan, korxonaning boshqa ichki bo'limlari uchun rejadagi xizmatlarni bajarish, sexga biriktirib quyilgan binolar, inshootlar, mashinalar, uskunalar, asboblari, mehnat predmetlari va ish kuchidan oqilona foydalanishdan, ichki texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni ta'minlashdan iboratdir.

Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maromi, uning ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulotining sifati va mehnat unumdorligining o'sishi har bir sexning reja topshiriqlarini qay darajada bajarilishiga bog'liq. Jamoaning mehnatdagi faolligini oshirish sex pudratini joriy etishga, sexlar va ishlab chiqarishning boshqa bo'linmalari faoliyatida bozor iqtisodiyoti talablarini kuchaytirishga yordam beradi. Shunday qilib, sex - korxonaning alohida bo'limi sifatida ikki asosiy belgiga: a) ma'lum texnologik va b) ma'lum tashkiliy tuzilmaga ega bo'ladi.

Yordamchi ishlab chiqarish sexlari o'ziga tegishli ish jarayonlarini amalga oshiradi, ammo tayyor buyum ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydi, asosiy sexlarga texnikaviy va moddiy xizmat ko'rsatadi, korxonaning uzluksiz ishlashi uchun normal sharoit yaratib beradi. Bu sexlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar asosan, korxona ichida ishlatiladi yoki qisman oz miqdorda tashqariga, ya'ni boshqa korxonalarga ham sotilishi mumkin.


Ishlab chiqarish tuzilmasi iqtisodiy jixatdan samarali bo'lgandagina to'g'ri deb topiladi. Buning uchun ishlab chiqarishning ayrim bo'limlari o'rtasida oqilona ishlab chiqarish aloqalari va proporsiyalari o'rnatilishi kerak. Ammo shu bilan birga, korxonalarda va uning bo'limlarida ishlab chiqarishni soddalashtirishga intilish zarur. Korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasi doimiy, o'zgarmas bo'ladi deyish noto'g'ridir. Vaqt o'tishi bilan u takomillashadi, asosiy ishlab chiqarish va yordamchi ishlab chiqarish sexlarining soni o'zgaradi, ayrim bo'linmalar yiriklashadi, sexlar o'rnida yangi ishlab chiqarish uchastkalari barpo bo'ladi, ishlab chiqarishning sex tuzilmasi o'rniga sexsiz ishlab chiqarish tuzilmasi vujudga keladi.

Korxona ishlab chiqarish tuzilmasini optimallashtirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Optimallashtirish matematik usullar orqali amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda ko'plab masalalar EXMLar yordamida echilib, harakatdagi korxonalarning ishlab chiqarish tuzilmasini o'zgartirish yo'llari belgilanmokda.

Boshqaruv tizimining tayanch tushunchalari elementlar, aloqa (munosabatlar), pog'ona va vakolatlardir. Boshqaruvning tashkiliy strukturasida element sifatida alohida xodim (rahbarlar, mutaxassislar, xizmatchilar) yoki bo'lmasa bir qancha xodimlar band bo'lgan biron bir funkstional vazifani

bajaruvchi xizmat yoki boshqaruv apparati organlari ham hisoblanishi mumkin. Elementlar yordamida amalga oshiriladi.

O'z navbatida uning boshqaruv strukturasi ham zamonaviy boshqaruv tamoyillariga mos holda tuzilgan. «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasining faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, bu ilmiy ishni qo'shma korxonaning boshqaruv strukturasi tahlil qilishdan boshlashni ma'qul ko'rdik. Ushbu maqsadida biz strukturaning soddalashtirilgan ko'rinishini o'rganib, tahlil qilishga harakat qilindi



2.1.1-rasm. «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonani boshqaruv strukturası

Struktura bir qancha xodimlar band bo'lgan biron bir funkstional vazifani bajaruvchi xizmat yoki boshqaruv apparati organlari ham hisoblanishi mumkin. Elementlar yordamida amalga oshiriladi. Gorizont al aloqalar yagona pog'onali hisoblanib, bir-biri bilan muvofiqlashtirish xarakteriga ega.

Ilmiy tadqiqotlarimiz ob'ekti qilib tanlab olingan «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasining tashkiliy boshqaruv faoliyati ilg'or zamonaviy korxonalar kabi tashkil etilgan bo'lib, unda rivojlangan boshqaruv tajribalari tadb iq etilgan. O'z navbatida uning boshqaruv strukturasi ham zamonaviy boshqaruv tamoyillariga mos holda tuzilgan. «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasining faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, bu ilmiy ishni qo'shma korxonaning boshqaruv strukturasi n i tahlil qilishdan boshlashni ma'qul ko'rdik. Korxona strukturasi chiziqli – funkstional ko'rinishda bo'lib, murakkab organik tuzilishga ega.

Uzluksiz-potok ishlab chiqarish usuli - mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning iqtisodiy maqsadga muvofiq shakli bo'lib, to'g'ri echimli, parallel, beto'xtov, bir maromdalik va proporstional qoidalarni o'zida jamlagan elementlardan iboratdir.

Korxonalarni ixtisoslashtirish - potok usulining qo'llanishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Potok ishlab chiqarish deb, texnologik jarayon asosida joylashgan ish o'rinlarida muayyan vaqt ichida texnologik operastiyalarni uzluksiz takrorlanib bajarilishga aytiladi.

Potok ishlab chiqarishida ishchilarning ma'lum ish operastiyalariga ixtisoslashuvchi va bu operastiyalarni bajarish uchun ixtisoslashtirilgan jixozlarning qo'llanishi va operastiyalarning uzluksiz bajarilishi uchun etarli shart sharoitlar yaratilishi kerak.

Ishlab chiqarishni texnik tayyorlashni o'zi, quyidagi qismlardan tashkil topadi:

- ishlab chiqarishni konstruktorlik tayyorlashni tashkil qilish;
- ishlab chiqarishni texnik tayyorlashni tashkil qilish;
- ishlab chiqarishni iqtisodiy tayyorlashni tashkil qilish.

Ishlab chiqarishni texnik tayyorlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- I. Dastlabki ma'lumotlarni to'plash;
- II. Yangi mahsulotni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarjarayonini loyihalash;
- III. Iqtisodiy samaradorligini hisoblash, yangi mahsulotlarni ishlab chiqariladigan potoklarning iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

I bosqichda quyidagi ishlar bajariladi: loyiha, almashtirilayotgan mahsulotning tashqi ko'rinishi ishlatilishi kerak bo'lgan asosiy va yordamchi materiallarning turlarini tanlash va ularni almashtirish mumkin bo'lgan variantlarni belgilash, ombordagi asosiy va yordamchi materiallarning zapaslari bilan tanishib chiqish, yangi modelning texnik xujjatini tayyorlash, ishlatilishi kerak bo'lgan mashina va jixozlarning nomi aniqlanadi, ehtiyot qismlarning zaxiralari bilan tanishib chiqiladi va boshqalar.

II. Yangi mahsulotni loyihalashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlar bajariladi. Bunda operastiyalarni bajarish ketma-ketligi tuzilishi bilan bir qatorda operastiyalarni ishchilarga taqsimlash jadvali tuzib chiqiladi. Mehnat taqsimoti asosiy va yordamchi shartlarni hisobga olingani holda bajariladi. Ishchilarga ish taqsimlanadi. Ish haqi va mehnat me'yorlari belgilanadi.

III. Yangi loyihalashtirilayotgan potokning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari hisoblanadi va uning samaradorligi asoslab beriladi.

Tayyorgarlik sexlarida ishchilar sonini hisoblash. Tayyorgarlik sexini to'g'ri tashkil qilish sexda ishlayotgan ishchilar sonini hisoblash va ishlab chiqarish maydonini to'g'ri aniqlashdan iboratdir. Ishchilar sonini uch xil usulda hisoblash:

1. Mahsulotning mehnat sarfi orqali bu usulda ishchilar soni bir smenada ishlab chiqarishni kerak bo'lgan mahsulotlarning mehnat sarfining 1 ta ishchining smenadagi ishlash vaqtiga bo'linadi:

$$N_p = T_{izd}(\text{prog})/t_{rab} \quad (2.1.1)^{14}$$

2. Mahsulot normasi yordamida. Bu usulda ishchilar soni 1 smenada ishlab chiqarishni kerak bo'lgan mahsulot sonini 1 ta ishchining mahsulot ishlab chiqarish normasiga bo'lib topiladi:

$$N_p = V_{sm}(\text{prog})/N_{Vsm} \quad (2.1.1)^{15}$$

3. Ishchilarni operastiyalar buylab joylashtirish asosida.

Ishlab chiqarishni texnik tayyorlash bu yangi modellarni yaratishdan tortib, to tayyor mahsulot holiga kelguncha qadar bajariladigan ishlarni beto'xtov amalga oshirish bilan bir xatorda ularga bajarishga sarflangan vaqtni kamaytirishni ham hisobga olish kerak bo'ladi.

Yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga tayyorlash va uni ishlab chiqarishga joriy xilish bir xancha ishlarning yigindisidan iboratdir. Ilmiy tadqiqot ishlari, yangi modelni konstrukstiyasini yaratish bo'yicha ishlar, texnologik jarayonni ishlab chiqish va boshqalar.

¹⁴ Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari - T.: «Mehnat», 1997.

¹⁵ O'sha joyda

2.2. “Uz-Tong Xong CO” qo’shma korxonasning asosiy texnik iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili

O’zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi milliy iqtisodiyotimizda miqdor va sifat o’zgarishlariga sabab bo’ldi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti jamiyatni demokratiyalashtirish, iqtisodiyot salohiyatlarini mustahkamlash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga yo’naltirilgan, bozor munosabatlariga o’tishning mamlakatimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan modeli asosida rivojlanib bormoqda. Bu model O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni islohot qilishning beshta muhim tamoyiliga asoslangan hamda xo’jalik faoliyati yurituvchi sub’yektlarning erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi zaruriy qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan.

Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi ushbu vazifalarning amalga oshirilishida korxonalarga katta rol ajratilib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo’g’ini bo’lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko’rsatish tufayli iste’molchilarning talablarini ham qondiradilar.

Korxonaning asosiy texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri bu ishlab chiqariladigan mahsulotning hajmini natural o'lchov birligida, qiymat birligida, mahsulot tannarxi, foyda, rentabellik darajasi, mehnat unumdorligi, ishchilar sonini ifoda etadigan ko'rsatkichlaridir.

Mana biz tadqiqotimiz obyektni hisoblangan "Uz- tong xong co" qo'shma korxonasining ishlab chiqarish faoliyatini tahlil etamiz. Quyidagi "Uz-tong xong co" qo'shma korxonasi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili berilgan (2.2.1-jadval)

2.2.1 -jadval

**«Uz-Tong Xong Co» Qo'shma korxonasining
2011-2013 yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari
D I N A M I K A S I**

	Iqtisodiy ko'rsatkichlar	O'lcho v birligi	Y i l l a r			D I N A M I K A			
			2011	2012	2013	2012\2011		2013\2011	
							%	+	
	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	ln. AQSh \$	9,30	6,50	8,50	,20	12,14	,20	15,51
	Mahsulot tannarxi	ln. AQSh \$	5,50	8,13	2,70	,63	05,77	,20	15,82
	Yalpi moliyaviy natija	ln. AQSh \$	3,80	8,37	5,80	,57	33,14	,00	14,49
	Asosiy vositalar o'rtacha qiymati	ln. AQSh \$	1,36	2,60	4,30	,24	10,92	,94	25,88
	Ay. mablag' qiymati	ln. AQSh \$	,40	,60	,90	,20	02,13	,50	05,32
	Personal	ishi	77	96	54	19,00	24,95	77,00	37,11
.1	I/ch band bo'lgan xodimlar	ishi	97	07	65	10,00	27,71	68,00	42,32
.2.	I/ch band bo'lmagan xodimlar	ishi	0	9	9	,00	11,25	,00	11,25
	Mehnat unumdorligi	ing.AQ Sh \$	50,0	130,0	20,0	0,02	7,81	0,03	1,17
	Yillik ish haqi fondi	ing AQSh \$	500,5	245,2	545,6	44,70	49,63	045,10	69,65

	O'rtacha oylik ish xaqi	A QSh \$	2 62,14	13,93	3 24,36	1,78	1 19,75	6 2,22	23,74
	Fond qaytishi	A QSh \$	5 22	28	4 70	06	1 01,11	- 0,42	1,77
	Fondlar	A QSh \$	0 10	0 10	0 21	00	9 2,01	0 02	02,07
	Um.	%	1 0,20	1 2,50	1 4,00	1 20	1 22,55	3 80	27,25
	Jami o'rindiqlar soni	K omp.	2 35200	2 44600	2 48500	1 400,0	1 04,00	1 3300,0	05,65
	Sof foyda	M ln.	3 ,11	2 ,82	2 ,72	9 0,29	0 0,7	0 ,39	7,5

*Manba: «Uz Tong Xong Co» Qo'shma korxonasi statistik ma'lumotlari

Yuqoridagi fikrlarimizga yanada oydinlik kiritish maqsadida asosiy turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish xajmini natura shaklida ko'rib chiqamiz.

Qo'shma korxonaning asosiy mahsuloti o'rindiq hisoblanadi. 2011 yilda 235200 komplekt o'rindiq ishlab chiqarilgan bo'lsa 2013 yilga 248500 komplekt ishlab chiqarildi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish ham ortishini ifoda etadi.

2.2.2.-jadval

«Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasining ishlab chiqarish hajmi, komplekt

	Ko'rsatkichlar	2011 yi I	2012 yil	2013 yi I	2012/ 2011yy	2013/ 2011yy
	Jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	235200	244600	248500	104,00	105,7
	Shundan. Damas13	2	28	3	1	1
	Neksiya36	8	90	9	1	1
	Lasetti10.3	2	28	3	1	1
	Kobalt18.9	4	51	5	1	1
	Matiz delyuks19.3	4	46	4	1	1

Manba: «Uz-Tong Xong Co» Qo'shma korxonasining yillik ma'lumotlari

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasi 2011 yili 235200 komplekt o'rindiq ishlab chiqargan bo'lsa ularning eng salmog'ligi- 36,2 foizi Neksiya avtomashinalari uchun ishlab chiqarilgan.Chunki,

bozordagi ushbu avtomashinaga bo'lgan talab yuqori hisoblanadi. Lekin o'sish sur'ati bo'yicha Lasetti avtomashinasi yuqori turadi, uch yil ichida ushbu avtomashinaga bo'lgan ehtiyoj 118 foizga oshgan.

Korxonaning samarali ishlashi avvalambor xodimlar soni va ularning malaka darajasiga bog'liqdir «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasining xodimlar soni (2.2.3-jadval) 2011 yili jami asosiy faoliyat turida 477 nafarni tashkil etib, ulardan 344 nafari ishlar, 37 nafari muxandislar va 26 nafari masterlardan iborat. 2012-2013

yillar xodimlar ortib borgan. Shulardan asosiy faoliyat turidagi xodimlar soni oshgan. 2012 yili ishchilar soni 450 nafar bo'lgan bo'lsa, 2013 yili esa 754 nafarni tashkil etgan.

Endi mehnat manbalar faoliyatini tahlil etamiz.

2.2.3-jadval.

Mehnat unumdorligi tahlili

	Ko'rsatkichlar	Yillar			O'zgar ishi % 2013/2011
		2011	2012	2013	
	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	59.30	60.50	68.50	115.5
	Jami xodimlar soni	477	596	654	137.1
	Ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar	357	507	565	142.3
	Ishlab chiqarish bosh bo'lgan xodimlar soni	149.3	131.2	121.2	81.2

Manba: «Uz-Tong Xong Co» Qo'shma korxonasining yillik ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki korxonada mehnat manbalarida foydalanish holati _. Yani 2013/2011 yillar oralig'ida jami nisbati hisoblangan ishlab chiqarish mehnat hajmi 84.2 foizga to'gri kelgan bo'lsa, ishlab chiqarishda band to'gri kelgan.

Bu yerda xodimlardan samarali foydalanishni kelgusidan strategiyasining asosi qilib olishimiz maqsadga muvofiqdir.

2.2.4 -jadval

«Uz-Tong Xong Co» Qo'shma korxonasining xodimlari soni,

“kishi” hisobida

	Ko'rsatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2012 / 2011 yy	2013 / 2011 yy
	Bosh direktor	1	1		100	100
	Departament direktori	2	2		100	100
	Bosh menenjer	3	3		100	100
	menenjer	8	9		125,	125,
	Menenjer assistenta	1	1		115,	107,
	Injener	3	3		102,	102,
	Master	2	2		103,	103,
	Ishchi	3	4		130,	145,
	Tex xodim	4	5		117,	124,
	Jami	4	5		124,	137,

Manba: «Uz-Tong Xong Co» Qo'shma korxonasining «Xodimlar to'g'risida hisobot» 1-T shaklining yillik ma'lumotlari.

«Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasidagi xodimlar soni 2011 yilda 477 kishini tashkil qilgan bo'lsa, ularning 72 foizini ishchilar tashkil qilgan. Injener va masterlar salmog'i 13,2 %ni tashkil qilgan. 2013 yilga kelib ishchilarning soni 500 nafarga yoki jami xodimlar salmog'ini 76,45 foizni tashkil qilgan, injener va masterlar jami xodimlar salmog'ining 9,9 foizini tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdi, «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasi rahbariyati kadrlar siyosatida asosiy e'tiborni ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratgan.

Ishlab chiqarish samarali optimal yana bir muxim ko'rsatkich bu material manbalardan foydalanish hisoblanadi.

Shu boyis navbatda material manbalarda foydalanish holatlari o'rganib chiqamiz.


2.2.5-jadval

Material manbalaridan foydalanish holati tahlili.

	Ko'rsatkichlar	Yillar			O'zgar ishi % 2013/2011
		2011	2012	2013	
	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	59.30	60.50	68.50	115.5
	Mahsulot tan narxi	45.50	48.13	52.2	115.2
	Korxonada material sig'imi	0.767	0.723	0.769	100.3

Manba: «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasining hisobot ma'lumotlari.

2.2.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki oxirgi 3 yil ichida korxonada material sig'imi 0,002 dollarga ortgan.



2.2.1 - Rasm. Material sig'imi o'zgarish dinamikasi \$.

Bu yerda asosiy etibor tejamkorlikda qaratishimiz lozim.

Asosiy fondlarda foydalangan holatini o'rganib chiqamiz.

2.2.6-jadval

“Uz-tong-Xong Co” qo'shma korxonasida asosiy fondlarda foydalanish holati tahlili.

	Ko'rsatkichlar	Yillar			O'zgar ishi % 2013/2011
		2011	2012	2013	
	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	59.30	66.50	68.50	115.5
	Asosiy vositalar o'rtacha	11,36	12,60	14,30	114.4

	qiymati				
	Fond qaytishi	5,22	5,27	4,79	91.8

Manba: Uz-Tong Xong Co qo'shma korxonasi ma'lumotlari.

Agar fondlardan foydalanish holatiga baho beradigan bo'lsak, 2012 yilda nisbati 0.05 dollarga ortgan ammo 2013 yilga kelib 2011 yilga nisbatan -0.43 dollarga kamaygan. Bu yerda ham etibor kuchaytirish lozim.

2.2.7-jadval

«Uz Tong Xong Co» Qo'shma korxonasining moliyaviy ko'rsatkichlari,
(mln.doll)

	Ko'rsatkichlar	2011y	2012y	2013y	2012/2011yy	2013/2012yy
	Jami daromadlar	59,30	66,50	68,50	11,11	11,51
	Ishlab chiqarish tannarxi	45,50	48,13	52,70	10,57	11,58
	Yalpi daromad	13,80	18,37	15,80	13,32	11,49
	Davr xarajatlari	4,07	4,85	5,00	10,39	10,63
	Asosiy faoliyatdan daromad	4,39	4,11	4,03	93,62	91,80
	Moliyaviy faoliyat xarajatlari	1,01	1,04	1,07	10,29	10,59
	Soliq tushishdan oldingi foyda	3,38	3,07	2,95	90,83	87,28
	Sof foyda	3,11	2,82	2,72	90,68	87,46
	Rentabellik%	6,2	4,8	4,4	10,68	14,28

Manba: «UzTong XongKo» qo'shma korxonasining hisobotlari ma'lumotlari asosida hisoblandi.

«Uz Tong Xong Co» qo'shma korxonasining moliyaviy holatini tahlili 2.2.4-jadval ma'lumotlari asosida berilgan bo'lib, korxonaning 2011 yili jami daromadi 59,3 mln.dollarni tashkil etgan. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 45,5 mln.dollarga teng bo'lgan. Shu yili korxonaning yalpi daromadi 13.8 mln.dollrgan yoki 6,2 foiz rentabellikka teng bo'lgan. 2012 yili korxonaning yalpi daromadi 18,37 mln.dollarga teng bo'lgan. Korxonaning foydalilik darajasi 4,8 foizni tashkil

etgan. 2013 yili esa korxona 9,03 mln. dollarga teng bo'lgan. Bu 2011 yilga nisbatan 99.0 foizga, 2012 yilga nisbatan esa 1,9 foizga oshgan.

Korxonaning foydalilik darajasi tahlil natijalari bo'yicha ko'rilganda, 2011 yil ma'lumotlari bo'yicha eng yuqori samaraga erishgan yil deb hisoblasa bo'ladi. Sababi 2011 yili korxonani foydalilik darajasi 6.2 foizni tashkil etgan. 2012 va 2013 yillari esa 4.8-4.4 foizga teng bo'lgan. Sababi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 2012 va 2013 yillari 2011 yilga nisbatan ko'p bo'lgan ya'ni 2013 yili 2011 yilga nisbatan 28.5 foizga 2012 yilga nisbatan esa 4.7 foizga oshgan. Shu sababli korxonani foydalilik darajasi 2011 yilga nisbatan kamaygan.

Shuni aytib o'tish kerakki, birinchidan, foyda korxona faoliyati samaradorligini ko'rsatuvchi mezon va ko'rsatkichdir. Boshqacha qilib aytganda, daromadlilik korxonaning samarali faoliyatidan dalolat beradi. Foyda-bu bozor iqtisodieti sharoitida ishlab chiqarish fondlari va ishlab chiqarilgan mahsulotni harakatlantiruvchi kuch va yangilanish manbaidir. Va nixoyat, foyda korxona jamoasi a'zolarini ijtimoiy himoyalashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur Nizomga muvofiq mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar va davr xarajatlari ro'yxati:

I - xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatining rentabelligini va bozor raqobatbardoshligini aniqlash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish davomida xo'jalik yurituvchi sub'yektda paydo bo'ladigan barcha xarajatlar to'g'risida buxgalteriya hisobi schyotlarida to'liq va aniq axborot shakllantirilishi;

- solik solinadigan bazani to'g'ri aniqlash maqsadida belgilanadi.

Mazkur Nizomga muvofiq barcha xarajatlar quyidagilarga guruhlanadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

- a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

- b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

- v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish hususiyatlariga ega bo'lgan ustama xarajatlar;

- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar:

- a) sotish xarajatlari;

- b) boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf-xarajatlar);

- v) boshqa operastion xarajatlar va zararlar;

- xo'jalik yurituvchi sub'yektning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan xo'jalik yurituvchi sub'yektning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlari:

- a) foizlar bo'yicha xarajatlar;
- b) xorijiy valyuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy ko'rsatkichli tafovutlari;
- v) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;
- g) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar;

Maksimal foydaga intilayotgan korxona ishlab chiqarishni shunday tashkil etishi kerakki, bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga xilingan chiqimlar minimal darajada bo'lsa va qo'yilgan vazifani xal qilish chog'ida kelgusida narxlar o'zgarmaydi, deb faraz qilinsa, u holda ikki omil: sarmoya mablag'lari va mehnat natijalari tahlil qilinadi. Uzoq muddatli jarayonda ikkala omil ham o'zgaruvchan bo'ladi. Chunki mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan mehnat hajmi o'zgarishi bilan sarmoya solish ko'rsatkichi ham o'zgaradi va aksincha, investitsiyalarning o'zgarishi mehnat miqdoriga tasir etadi.

2.3 «Uz-Tong Xong CO» qo'shma korxonasning iqtisodiy samaradorligini oshirishda biznes rejani ta'sirining tahlili.

Mana biz yuqorida ta'kidlab o'tdiki bugungi kunda mulk moliyaviy kabi barcha tadbirkorlik sub'yektlari o'zlarining biznes rejalariga ega bo'lishlari kerak. Chunki biznes rejalar boshqaruvning undovi hisoblanadi.

Uz-Tong Xong Ko qo'shma korxonasi o'z faoliyatini tasdiqlangan biznes rejalarini orqali amalga oshiradi.

Qo'shma korxonaning asosiy faoliyat turi engil avtomobilar uchun o'rindiqlar ishlab chiqarish hisoblanib uningyillik quvvati 250.000 donna tashkil etadi.

Biznes rejaning boshlang'ich qismida kompaniya strategiyasiga to'xtalish kerak.

Kompaniya strategiyasini ichki va tashqi muhit siyosati haqida ma'lumot berilmagan.

Biznes reja asosan 3-5 yilga tuzilgan. Ammo kompaniya biznes rejasi 1 yillik ma'lumotlar bilan yuklanib kelgan.

Qo'shma korxona biznes rejasi kunidagi bo'limlardan iborat:

1. Ishlab chiqarish va sotish xajmi;

2. Tayyor mahsulot bahosi
3. Material sarflari
4. Mehnat sarflari
5. Investition loyihalarni moliyalashtirish
6. Moliyaviy faoliyat xarajatlari.

Biznes reja tuzilishi bo'yicha ko'radigan bo'lsak ishlab chiqarilgan mahsulotlarga to'liq xarakteristika berilmagan, bozor tahlili, bozordagi raqobat marketing masalalariga alohida e'tibor qaratilmagan

Agar biznes faoliyatda o'zgarishlar yuzaga keladigan bo'lsa biznes rejaga tuzatishlar kiritiladi.

Biznes rejada qo'shma korxonaning xarajatlari milliy valyutada ko'rsatilgan bo'lib, o'rtacha yillik almashtirish kursi AQSh dollariga nisbatan olingan.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning bahosi xarajatdagi ta'rif bo'yicha hisoblangan.

Chetdan keltirilayotgan butlovchi qismlarning qiymati va boshqa materiallar bo'yicha o'tgan yildagi xarakatdagi baho asosida olinadi. Shu jumladan maxaliy va almashtiruvchi qismlar bo'yicha ham.

Hozirgi paytda butlovchi qismlarni yetkazib beruvchilar tomonidan bahoni o'zgartirish bo'yicha takliflar tushmoqda. Bu qo'shma korxona boshqaruv xayati tomonidan ko'rib chiqiladi.

Sarflari rejasida uch smenali mehnat kuni joriy etilgan. Ish haqini ortishi ko'zda tutilgan, uning stavkasi boshqaruv xayati qarori asosida belgilanadi. Xodimlarni rag'batlantirish ya'ni mukofotlash ko'zda tutilgan.

Bank kredit mablag'lari hisobidan investitsiya loyixalar zarur hollarda moliyalashtiriladi.

Xizmat muddati tugagach va eskirgan qurilmalarni modernizatsiyalash rejalashtirilgan. Ishlab chiqarish ob'ektlarini kengaytirish biznes rejalashtirish ko'zda tutilgan. Barcha olingan kredit mablag'larini foizi bilan qaytarib berilishi xarajatlarni tarkibiga kiritilgan.

Agar tuzilgan shartnomadagi tariflar o'zgargan holda biznes rejaga tuzatmalar kiritiladi.

Korxonaning biznes rejasi tashkiliy reja qismida faqat ish kuni grafigi bilan cheklanib qolgan holos.

Bu erda quyidagilar berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Kompaniya tashkiliy boshqaruv tuzilishi
2. boshqaruv xodimlari
3. boshqaruv bilan bog'liq bo'lmagan xodimlar
4. Kompaniyada kadrlar siyosati

Yuqoridagi masalalarni batafsil yuritilishi biznes rejaning sifatini oshiradi va bozor talabiga javob berishga kafolat ham beradi.

Mahsulot bahosi tanlash strategiyasiga ma'lumot ko'proq biznes rejalarning marketing bo'limida beriladi. Bahoning aniq hisobi ishlab chiqarish rejasi bo'limida mahsulot tannarxi kalkulyastiyasi tariqasida berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

“Uz -TONG XONG Co ” qo'shma korxonasi ko'rsatkichlari, biznes rejada o'z aksini topmagan.

Ishlab chiqarish bo'limida mahsulotlarning oylar bo'yicha taqsimlangan holda ishlab chiqarish xajmi ko'rsatilgan. Navbatdagi realizastiya miqdori oylar bo'yicha va kutilgan sotishdagi tushgan tushum ham oylar bo'yicha ko'rsatilgan.

Qo'shma korxona biznes rejaning navbatdagi qismida asosiy materiallar yordamchi materiallar qiymati va tuzilishi ko'rsatib o'tilgan. Shu jumladan tannarx tarkibiga kiruvchi mehnat sarflari (Ajratmasi bilan) kommunal xizmat sarflari, shu jumladan 1 mahsulotga ehtiyoj, asosiy vositalar amortizastiyasi, muomula xarajatlari, investistiyalar va loyiha tomonidan to'lanadigan soliqlar hisobi berilgan. Qo'shma korxona biznes rejasining oxirgi bo'limi moliyaviy natija bo'lib, bu ham oylar bo'yicha taqsimlab chiqilgan.

Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki qo'shma korxona biznes rejasi kelgusida takomillashtirishga muxtoj. Sababi davr o'tishi bilan biznesga qo'yilgan talablar o'zgaradi va muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

III BOB. « Uz-Tong Xong CO» qo'shma korxonasida biznes rejalashtirish samaradorligini oshirish yo'llari

3.1. «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasida biznes reja ishlab chiqish jarayonini takomilashtirish.

Mana biz o'zimizning bitiruv malakaviy ishimizda qo'shma korxonalarda biznesni rejalashtirish samaradorligi mavzusini atroflicha o'rganib chiqdik.

Hammamizga ma'lumki tadbirkorlik sub'yektlarini boshqarishning asosiy quroli bu biznes reja hisoblanadi. Shunday ekan mulk shaklidan qat'iy nazar barcha tadbirkorlik subektlarining bozorda tutgan o'rni va mavqei biznes reja natijasi yoki mahsuli hisoblanadi.

Rejalashtirish boshqarish jarayoni sifatida o'z texnologiyasiga ega bo'lib, bu texnologiya korxonaning rejalashtirilayotgan davrdagi maqsad va vazifalarini aniqlash, bajaruvchilarga muayyan vazifalarni belgilash, vazifalarning turi, kattaligi va muddatiga ko'ra aniqlashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati natijasi -

daromad yoki foyda olishni o'z ichiga oladi. Bu vazifalarni bajarishda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- ishlab chiqarish quvvatining mavjudligi va tuzilmasi;
- xodimlar soni, ixtisos tarkibi va malakasi;
- moliyaviy resurslar;
- aylanma mablag'lar mavjudligi va unga bo'lgan ehtiyojlar;
- ilmiy-texnik tadqiqotlar tuzilmasi va tayyorlik darajasi;
- mahsulotni sotish kanallari.

Rejalashtirish quyidagi talablarga javob bergan taqdirdagina *samarali va ishonchli* hisoblanadi:

- rejalashtirishning har bir elementi va bosqichi qat'iy ravishda asoslab berilishi;
- rejadagi vazifaning aniq va o'z vaqtida bajarilishi, ya'ni rejaning adresliligi;
- reja bajarilishini doimiy va uzluksiz ravishda hisobga olish, nazorat qilish va unga zarur hollarda o'zgartirishlar kiritish;
- ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlarni ijobiy qabul qilish, shuningdek, korxona faoliyatini ro'y bergan o'zgarishlarga mos ravishda o'z vaqtida qayta tashkil qilish;
- fan-texnika taraqqiyoti va xo'jalik yuritishning ilg'or tajribalariga tayanish.

Rejalashtirishning har bir turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, quyidagilardir:

- belgilangan rejalashtirish oralig'ining aniqligi;
- integratsiya va differentsiatsiya darajasi, shuningdek, rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlar miqdori;
- ishlab chiqarish xarajatlari va natijalarini hisob-kitob qilish darajasining aniqligi;
- rejani tayyorlovchilar va amalga oshiruvchilar o'rtasidagi majburiyatlarni taqsimlash tartibi.

Biznes-rejalarda eng muhim rejalashtirish ko'rsatkichlari quyidagilar:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va hajmi;
- mahsulot sotish hajmi (pul ko'rinishida);

- mahsulot birligining tannarxi ;
- foyda (daromad);
- kategoriyalar bo'yicha xodimlar soni;
- mehnatga haq to'lash fondi va o'rtacha ish haqi darajasi;
- omborlardagi xomashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zaxiralari;
- aylanma vositalar hajmi - umumiy va guruhlar bo'yicha;
- kapital qo'yilmalar hajmi, jumladan, qo'yilma obyektlari va yo'nalishlari bo'yicha;
- yangi texnika va texnologiyaga oid chora-tadbirlar;
- boshqa ko'rsatkichlar.

Biznes-rejaning asosiy *vazifasi* korxonaga o'z imkoniyatlarini baholash, bozordagi istiqbolni, zaruriy xarajatlarni aniqlash, mazkur faoliyat turining foydali va zararli ekanligini baholashidir.

Shunday ekan bizning bitiruv malakaviy ishimizni ob'ekti hisoblangan «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasining kelgusidagi istiqbollari uni boshqarish quroli hisoblangan biznes rejasiga bog'liq bo'ladi. Demak biz bu yerda birinchi navbatda asosiy e'tiborimizni bugungi kundagi rejaning holati, uni bozor talablariga to'la mos kelishi va kelgusida mavqeini yuksaltirishga xizmat qilishiga qaratishimiz lozim. Bu yerda eng zaruri tuzib chiqish jarayoni hisoblanadi. Odatda biznes rejalar, ishchi guruhlar tomonidan tuziladi.

Biznesni rejalashtirishning birinchi qadamlaridan biri yuqori malakali kadrlarga asoslangan ishchi guruhni tashkil etish hisoblanadi. Ushbu guruhga o'ta ma'suliyatli vazifa yuklatilib, korxona uchun biznes reja ishlab chiqish va bozor sharoitida muvaffaqiyatli ishlash imkonini yaratib berishdir. Butun bir «Biznes reja» va uning bo'limlari keng xar tomonlama muxokama qilinishi zarur. Biznes turiga qarab ishchi guruh tarkibiga marketologlar, yuristlar, injener-texnik xodimlar, iqtisodchilar ruxshunos (psixolog)lar jalb etilib ular tarkibidan mayda ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin. Har bir guruhga ma'suliyatli shaxs yoki rahbar tayinlanadi. Biznes mohiyatidan kelib chiqib aniq topshiriqlar beriladi va ularni bajarishning aniq

muddati belgilanadi. Agar biznes reja ishlab chiqishda ma'lum bir chegaralangan shaxslar ishtiroq etsa, ushbu biznes o'ta yuqori muvaffaqiyatga erishmaydi. Shu maqsadda biznes reja ishlab chiqishga korxonaning barcha asosiy bo'limlari boshliqlari (menedjerlari)ni jalb etilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ular doimiy ravishda rahbariyat oldida reja bajarilishi haqida hisobot berib turadilar.

Biznes reja tuzish — korxonani oldindan belgilab olgan strategiyasi va taktikasi asosida moliyaviy iqtisodiy ahvolini tahlil etish va baho berish jarayonidir. Yuzaga kelgan hisobotga baho berish jarayonida quyidagi savollarga javob berilishi kerak:

- korxonaning tarmoq ichida tutgan o'rni qanday?
- korxona faoliyat ko'rsatadigan bozor xarakteri qanday?
- korxona mavjud bozorning qancha qismini egallashni xohlaydi?
- qanday sezilarli o'zgarishlar bo'lishi mumkin?
- a) ishlab chiqariladigan mahsulot va ko'rsatilgan xizmat sohasida;
- b) tarmoqda qo'llaniladigan texnologiya darajasida;
- v) raqobat xarakteri borasida;

Korxona kelgusida mahsulot ishlab chiqarish sifatini (raqobatbardoshligini) oltirish maqsadida qanday tadbirlar amalga oshirishni ko'zda tutadi?

- Korxona qanday afzalliklarga ega? Kuchli tomonlari mavjudmi?
- Korxonaning kuchsiz tomonlari mavjudmi?
- Korxonani ko'zlagan maqsadiga erishishida qo'shimcha kapital mablag' zarur bo'ladimi va xakazo.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yuritish rahbarning o'tgan davrda korxona moliyaviy holatini chuqur tahlil etishni taqazo qiladi. Maqsadi mavjud aktivlardan oqilona foydalanish va korxonani kelgusida strategiyani rejalashtirishni aniqlashdir.

Korxonaning moliyaviy hisoboti keng ma'noda olganda imkoniyatli sheriklar (hissadorlar, qarz beruvchilar, mol yetkazib beruvchilar) bilan uzviy aloqani bosh manbai va vositachisi bo'lib xizmat qiladi. Hisobot ko'rsatkichlari tahlil etishni to'g'ri yo'lga qo'yilishi korxona moliyaviy xo'jalik faoliyatini tahlil etish va

shariklarda ishbilarmonlik jarayonlarini birgalikda amalga oshirishga ishonch tug'diradi. Korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil etishda axborot manbai etib buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar hisoboti olinadi. Korxona balansidan aniq bir davrga (kvartal, yil) moliyaviy holat to'g'risida tavsifnoma olish mumkin. Tahlil etishda quyidagi asosiy koeffitsientlardan foydalanishi mumkin. Joriy likvidlik koeffitsienti (**K.t.l**)

Joriy likvidlik koeffitsienti (darajasi) qarz mikdori bilan likvid mablag' (qarz to'lashga kodir mablag'ning) mikdori o'rtasidagi nisbatga bog'liq bo'ladi. Agar qarz likvid mablag'dan ko'p bo'lsa, korxona bankrot bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar korxonalarni oborot mablag'lari bilan to'la ta'minlanganligi va o'z vaqtida muddatli majburiyatlari bajarilishini xarakterlaydi. U korxonada mavjud bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari, tayyor mahsulotlar pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqa oborot aktivlarini muddatli majburiyatlariga hisoboti bilan aniqlanadi.

$$Q\ t. l = O\ S / K\ O \quad (3)^{16}$$

Bu erda: OS — oborot mablag'lar

KO - qisqa muddatli majburiyat

Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek biznes reja ma'lum guruh tomonidan ishlab chiqiladi. «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasida ushbu guruhni tashkil qilishda, quyidagi mezonlarni tavsiya qilamiz:

1. **Xajmi.** Xorijdagi ko'plab olimlar, jumladan: Ralf Devis, Robert Tillman, G. Mannerz, R. Xakman va N. Vidmar 1951-1987 yillar ichida guruhlarining xajmini tashkilotlarning samaradorligiga ta'sirini urgangan kishilar sarasiga kiradilar.

Guruhlar xajmining katta – kichikligi buyicha uzoq yillar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan professor Ralf Devis, ularning xajmini 5–8 kishidan iborat bo'lishi maqsadga muvofik deb ta'kidlangan. Chunki guruhda 2–3 kishi bo'lsa, ular qabul qilayotgan qarorlarning ma'suliyati guruh a'zolariga juda og'ir yuk sifatida

¹⁶ Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari - T.: «Mehnat», 1997.

ta'sir ko'rsatadi. Xajmi 8 tadan ko'p bo'lganda esa, ular ma'suliyatni sezmasdan, o'ylab-o'ylamay qaror qabul qilishlari mumkin. Shu bilan birga ularning xajmini kengayib borishi, guruhlarni bo'linib ketishiga sabab bo'ladi.

2. **Tarkibi.** Guruh tarkibiga kiruvchi shaxslarning nuqtai nazarlari, muammoni echishga yondoshishlarni turlicha bo'lishligini takazzo kiladi. Chunki, nuqtai-nazarlar va fikrlar urtasidagi farkning darajasi qancha katta bo'lsa, muammoni tahlil qilish va uning echimini topish samaradoligi shunchalik yuqori bo'ladi. Professor Mayner ta'kidlaganidek: «Agar guruhga bir–biriga mutlaqo o'xshamaydigan kishilar yigilgan bo'lsa, ular bir–biriga yaqin bo'lgan (o'xshaydigan) guruh a'zolariga qaraganda ko'proq sifatga ega bo'lgan qarorlar ishlab chiqadilar»¹⁷.

3. **Guruh me'yorlari.** Guruh tomonidan qabul qilingan me'yorlar, guruhdagi xar bir a'zoning xatti–harakatiga va guruhning qaysi yo'nalishda faoliyat ko'rsatishiga bog'liq:

1. Tashkilotning maqsadlariga etishiga yordamlashuvchi yo'nalish;
2. Tashkilotning maqsadlariga erishishiga karshi harakat kiluvchi yo'nalish.

Me'yorlar guruh a'zolarining kandy xatti–harakatlarni tanlashiga xizmat kiladi. Guruh a'zosi ushbu me'yorlarga amal qilgandagina, guruh tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga va uni guruhga mansub ekanligini tan olinishiga umid qilishi mumkin.

Tashkilot nuqtai–nazaridan guruh me'yorlari ijobiy yoki aksincha, salbiy bo'lishi mumkin. Agar, bu me'yorlar tashkilot maqsadlariga erishishga yordam bersa ijobiy, agar aksincha, tuskinlik kilsa salbiy me'yorlar deyiladi. Amerikalik olim – Mark Aleksandr me'yorlar tugrisida shunday fikr bildirgan: «Ijobiy me'yorlar xodimlarning tashkilotga bo'lgan sadokatini mustaxkamlashga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirishga yoki xaridorlar ehtiyojlarining qondirilish darajasini kutarishga ragbatlantiradi. Salbiy me'yorlar esa xodimlarning

¹⁷ M.Meskon, M.Albert, F.Xeidouri. «Osnovy menedjmenta» M.1992

kompaniyaga yomon munosabatda bo'lishlariga, mulkka xujasizlarcha karashga, intizomni bo'zishga va boshka bo'zgunchilik harakatlarni ragbatlantiradi».

Amerikalik olim Andre De Le Porte guruh me'yorlarining quyidagi tavsifnomasini ishlab chiqdi:

- Tashkilotdan gururlanish;
- Uning maqsadlariga erishish;
- Samaradorligini ta'minlash;
- Jamoaviy mehnat qilish;
- Rejali ish olib borish;
- Nazorat;
- Kadrlarni kasbiy tayyorgarligini oshirib borish;
- Yangiliklar kiritishni qo'llab -quvvatlash;
- Buyurtmachilar bilan yaxshi munosabatda bo'lish;
- Xalollikni ximoya qilish.

Rahbar guruhlarining me'yorlari tugrisida fikr yurgizishda juda xam extiyot bo'lishi kerak. Agar, kul ostidagilarni, uning barcha fikrlarini to'la-tukkis, kur-kurona qo'llab-quvvatlashlarini me'yor deb hisoblasa, bu holat qabul qilinayotgan qarorlarning samaradorligiga salbiy ta'sir kiladi.

4. **Xamjixatlik** – guruh a'olarini bir-birlariga yokishi, intilishi deb tushiniladi. Guruhning yuqori xamjixatligi tashkilotning samaradorligini ta'minlashga xizmat kiladi. Professorlar K.Ueksley va G.Yukilar yuqori xamjixat guruhlar muloqat jarayonida guruh a'zolari urtasidagi muammolarning kam bo'lishligi, bir-biriga ishonch ruxining yuqoriligi, nizoli holatlarning kamligi bilan ajralib turishligini va ularda mehnat unumdorligining yuqori bo'lishligini e'tirof etishgan.


Guruh bilan xamfikrlik – guruhning ayrim a'zolari tomonidan, guruhda shakllangan umumiy fikr bilan mutanosiblikni saklab kolish maqsadida, o'zlarining ayrim shaxsiy fikrlaridan voz kechishlaridir.

Biroq, guruh xamfikrligi muxitida, aloxida shaxsning mustakil fikri umumiy fikrdan fark qilganda, u guruh fikrini qo'llab - quvvatlashga harakat kiladi va uni birinchi darajali deb hisoblaydi. Buning natijasida, muammoni xal qilish uchun qabul qilinayotgan qarorlar o'z samaradorligini ma'lum darajada yukotadi, chunki usha yashirib kolingan fikr optimal qarorni tanlashda muxim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin edi.

5. **Ixtiloflilik.** Biz yuqorida, guruhdagi fikrlar xilma – xilligi mukammal qarorlar ishlab chiqishga yordam beradi deb ta'kidlagan edik. Biroq, fikrlarning xilma–xillik darajasi ma'lum me'yordan utganidan keyin,. kelishmovchilik(ixtilof)larni keltirib chiqarishi va tashkilotning samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin.

Ushbu jarayonni quyidagi grafik kurinishida tasvirlash mumkin:

Ixtiloflilik
darajasi



3.1.1 - rasm. Samaradorlikning ixtiloflilik darajasiga bog'liqligi.

6. **Guruh a'zolarining maqomi** u yoki bu shaxs yoshining kattaligi, lavozim darajasi, xizmat xonasining joylashuvi, ma'lumoti, ijtimoiy kobiliyati va tuplagan tajribasi kabi sifat tomonlari bilan belgilanadi. Lekin, ushbu sifat tomonlar shakllangan me'yorlarga xam bog'liqdir. Maqomi yuqori bo'lgan guruh a'zosi, guruh qarorini ishlab chiqishda boshka, maqomi pastroq

a'zolarga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Bunday holatda guruh rahbari maqomi yuqori a'zolarining fikrlarini, maqomi pastroq a'zolarining fikrlaridan ustivor bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Ijtimoiy xatti-harakatni tashkil qilish boskichlari. Ijtimoiy xatti-harakatni tashkil qilishda va boshkarishda uning aloxida shaxsda va guruhda xamda ko'pchilik xatti-harakatida namoyon bo'lishi tomonlarining o'ziga xosligini e'tiborga olish zarur. Ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lgan odamlar guruhidagi faoliyatini tashkil qilishda jamoaning o'ziga xos qadriyatlarini, ijtimoiy me'yorlarini, mehnatga va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini inobatga olish kerak.

Guruh samaradorligini ta'minlovchi muxim omillardan biri, bu a'zolarining guruhdagi xatti-harakatlaridir. Guruh samarali faoliyat ko'rsatishi uchun uning a'zolari o'zlarini shunday tutishlari kerakki, buning natijasida tashkilot, ya'ni guruh o'z maqsadini amalga oshirsin xamda uning a'zolari ijtimoiy birlikka erishsin. Buning ikkita asosiy yo'nalishi mavjud: guruh a'zolarining maqsadli ro'llari va qo'llab - quvvatlovchi ro'llar.

Maqsadli ro'llarga quyidagilar kiradi:

1. Faoliyatda tashabbus ko'rsatish;
2. Axborot axtarish;
3. Fikrlar yigish;
4. Axborotlarni taqdim etish;

Hulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasida biznes rejani ishlab chiqish uchun yuqorida biz taklif qilayotgan guruxlarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalarimiz guruh samaradorligini – 10-15 %ga oshirishga yordam beradi.

3.2 « Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasi biznes rejasi tuzilishini takomillashtirish.

Biznes-reja keng, har tomonlama aniq tizimga tushirilgan va chuqur o'ylab tayyorlangan xujjat bo'lib, u firmani qay maqsadga harakat qilayotganligi, ko'zlangan maqsadga qaysi yo'llar bilan erishish va ko'zlangan maqsadga erishgandan so'ng natija qanday bo'ladi. Demak savollarga javob topiladi. Bu qulay, umumiy olingan hisoblanib loyixani imkoniyatlari bo'yicha to'la ma'lumot beradi. Biznes-reja korxona (firma)ning strategik istiqbolini belgilab beradigan asosiy xujjat hisoblanadi va uni 3-5 yilga tuzushni tavsiya etiladi. Biznes rejaning birinchi va ikkinchi yillariga ko'rsatkichlarni (topshiriklarni) kvartallarga taqsimlangan holda berilishi maqsadga muvofik hisoblanadi va faqat uchinchi yildan boshlab yillik ko'rsatkich (topshirik)lar bilan chegaralanish mumkin. Biznes-reja quyidagi asosiy masalalarni hal etadi.

Qo'shma korxonalar asosiy ikki va undan ortiq xorijiy davlatlar sarmoyasi asosida tashkil etadi. Bizning bitiruv malakaviy ishimizning ob'ekti hisoblangan « Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasi O'zbekiston va Janubiy Koreya davlatlar asosida tashkil etilgan.

Hozirgi harakatdagi « Uz-Tong Xong Co» korxonasida biznes reja tuzilishi quyidagi bo'limlardan iborat:

- Asosiy holat;
- Ishlab chiqarish va sotish holati;

- Tayyor mahsulot bahosi;
- Material xarajatlari;
- Mehnat sarflari;
- Investitsion loyihalarni moliyalashtirish;
- Moliyaviy faoliyat xarajatlari .

Bu tarkibiy tuzilish bugungi kunning talabiga javob bermaydi.

Yuqoridagi jadvalda mahsulotlarga atroflicha xarakteristika berilmaganligidan bozor xarajatlari tahlili marketing reja kabi bo'limlar o'z aksini topmagan.

Buni biz xato deb ayta olmaymiz, sababi korxonaning o'sha vaqtdagi biznes xatolaridan kelib chiqib tuzilgan bo'lishi mumkin.

Shunday ekan ularning boshqaruvini asosiy quroli sanalgan biznes reja ham ushbu ikki davlat sarmoyalari manfa'atlarini o'zida ifoda etishi lozim. Ya'ni davlatlar qonunlari talablariga to'la mos kelishi, sarmoya evaziga yuqori samara olishlari shart va xududni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasi talablariga to'la javob berishlari kerak. Bu yerda avvalo bozor holatini to'la o'rganilishi va uning asosida vazifalar belgilanishi shart.

Biznes rejaning ushbu bo'limida korxona faoliyatiga keng har tomonlama tavsifnoma beriladi. Tavsifnomada o'tgan davrda erishgan yutuqlari, bugungi kundagi holati va kelgusida rivojlanishiga zarur holatlar tahlili keng yoritiladi. Shu boisdan biz biznes rejani quyidagi na'munada bo'lishini tavsiya etamiz.

Bu bo'limni asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo'lishini tavsiya etamiz:

— Korxonaning o'tgan davrdagi faoliyati, mulk shakli darajasi bugungi kundagi va kelgusidagi maqsadi;

— Faoliyat turi (chakana savdo, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish);

Mahsulotlar (xizmatlar) turiga tushuncha, (bundan uning Kuzlagan maqsadi alohidalik tomonlari, avtorlik huquqi, patent savdo markasi va xokazo);

— Ma'lum bir bozorda mahsulotni realizastiya qilishning umumiy tomon va imkoniyatlari;

— Korxonaning tarmoqda tutgan o'rni (aniq, bir mahsulot, bozor segmenti va mavjud rag'batchilar bo'yicha);

— Korxonaning tarmoqdagi ro'li va tarmoq ichida rivojlanishi tendensiyasi (istiqbollari);

— Korxonaning asosiy maqsadlari;

— Biznesni tashkiliy shakli va kutilayotgan o'zgarishlar;

— Tashkilotchilar, asosiy investorlar va rahbarlar;

— qanday tashkiliy tuzilishga ega;

— O'tgan davrdagi yutuqlari va xrizgi kundagi kuchli tomonlari;

— O'tgan davrdagi muammolari va hozirgi kundagi kuchsiz tomonlari;

— Korxona muvaffaqiyatining tanqidiy omillari va tavakkalchilikning tendensiyasi imkoniyatlari;

— Texnik qayta qurollashtirish va texnik taraqqiyot bo'yicha tadbirlar;

— Foydalanilayotgan texnologiyaning holati;

— Moliyaviy hisobni olib borish usuli;

— Buxgalteriya hisobida foydalanilayotgan tizimlar;

— Korxonada mulkini sug'urta qilish tizimi;

— qo'shimcha sug'urta turlariga zaruriyat;

— Sug'urta organlari va sug'urta miqdori;

— Xavfsizlik tizimi va uning tovar material boyliklarni muxofaza qilishdagi funktsiyasi;

— Korxona territorial ishlab chiqarish kompleksiga tavsifnoma;

— Korxonaning joylashgan o'ri: afzalligi, kamchiligi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bu bo'limdagi ma'lumotlarning ko'pchiligi o'tgan davr va xakikiy holatga asoslangandir. Kam holatlarda kelgusi davrda rivojlanish haqida ma'lumotlar beriladi. Barcha talab etilgan ma'lumotlarning yoritilishi biznes reja sifatida ortishini ta'minlaydi.

Bizning tavsiya etgan ma'lumot strukturamiz ham kamchiliklardan holi bo'lmaganligi mumkin. Chunki davr o'zgarishi, bozor talablari o'zgarishi asosida tuzatmalar kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday ekan har bir qo'shma korxona boshqaruvi xay'ati qaror qabul qilishi jarayonida o'zining biznes doirasiga tayanishi eng ma'qul variant hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar

O'zbekiston bozor munosabatlari shakllanishining yangi bosqichiga o'tdi. Bozor iqtisodiyoti o'zining mohiyatiga ko'ra ishlab chiqarishni to'g'ri rejalashtirilishini rag'batlantirish, doimiy ravishda ishlab chiqarish samaradorligi ortishining vositasidir. Ammo hozirgi sharoitda eng asosiy maqsadimiz ishlab chiqarish samaradorligi ortishining asosiy yo'nalishlarini, uning o'sishi omillarini va samaradorligini ortishida biznes rejaning rolini orttirishdir.

Rejalashtirish mo'ljallangan ish yoki ma'lum bir harakatlarni bajarish muddati, tartibi va ketma-ketligini ko'zda tutuvchi chora-tadbirlar tizimidir. Rejalashtirish tartibga soluvchi jarayon sifatida korxona faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berish, muayyanlashtirish va izohlab berishni ifodalaydi. Rejalashtirish va bashorat qilish o'zaro aloqada bo'lgan ikkita jarayon bo'lib, xo'jalik faoliyatini avvaldan bajarilgan hisob-kitoblar, eng kam tavakkalchilik va eng yuqori natijalarga erishish asosida yuritishni ko'zda tutadi. Rejalashtirish indikativ reja yoki bashorat kabi rejalarni ishlab chiqish jarayoni bo'lsa, reja korxonaning ma'lum bir vaqt mobaynida amalga oshiruvchi texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zida aks ettiruvchi hujjatni ifodalaydi. Ayniqsa, bozor munosabatlari sharoitida mukammal ishlab chiqilmagan biznes rejasi, korxonalarning iqtisodiy o'sishini ta'minlashning iloji yo'q.

Biznes-reja ishlab chiqarishni faol rivojlantirish va shu bilan bir paytda uning dinamikasini nazorat qilish, investorlar, hamkorlar va kredit resurslarini jalb qilishni amalga oshiradi. Eng asosiysi u yoki bu ishlab chiqarishga pul kiritish joizmi, barcha xarajatlarni qoplovchi miqdorda daromad olinadimi degan savollarga javob beradi. Biznes-reja faqat shu bilan cheklanib qolmaydi, chunki u funktsional vazifalariga ko'ra ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnika va texnologiyalar, korxonaning

moliyaviy rejalari bilan bog'liq muhim masalalarni hal qilishga qaratiladi.

Biznes-reja birinchidan, korxonaning barcha bo'lim va xizmatlari majburiyatlari va javobgarligini aniqlashga imkon beradi, ikkinchidan, ularni korxona istiqboli bilan shug'ullanish hamda korxona maqsadlarini va ularga erishish yo'llarini aniqlashga majbur qiladi, uchinchidan, korxona faoliyatining muxim yo'nalishlari bo'yicha ko'rsatkichlarni belgilab beradi, to'rtinchidan esa, korxonaning bozordagi kutilmagan o'zgarishlarga yanada moslashuvchan va tayyor qilib qo'yadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, Bitiruv malakaviy ishimiz uchun tanlab olingan: **«Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasida biznes rejalashtirish samaradorligi»** mavzusi, hozirgi kunda iqtisodiyot fani oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuni to'la yoritish maqsadida quyidagini o'z oldimizga vazifa qilib qo'ygan edik va ular to'la bajarildi:

- Korxona iqtisodiyoti samaradorligi tushunchasi va uni oshirishning ahamiyati o'rganildi;
- Korxona iqtisodiy samaradorligini oshirishda biznes rejaning o'zni ko'rib chiqildi;
- Korxonani iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlar aniqlandi;
- “Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasining tashkiliy – texnik tavsifi berildi va boshqarish strukturasi tahlil qilindi;
- “Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasning asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilindi;
- “Uz-Tong Xong CO” qo'shma korxonasning iqtisodiy samaradorligini oshirishda biznes rejaning ta'siri tahlil qilindi;
- «Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasida biznes reja ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish;
- « Uz-Tong Xong Co» qo'shma korxonasi biznes rejasi tuzilishini takomillashtirish;

- Yakuniy xulosa qilish va tavsiyalar berish.

Ilmiy tadqiqotlarimiz uchun tanlab olingan «Uz-Tong Heung Co» qo'shma korxonasi Andijon shahrining janubiy tomonida, Aylanma ko'cha 4 «a» manzilda joylashgan. Bu qo'shma korxonaning shonli tarixi 1996 yilning 14 yanvarida Koreyaning "KM&I Co. Ltd" va O'zbekistonning "O'zavtosanoat" aktsiyadorlik kompaniyasi tomonidan imzolangan shartnomadan boshlangan. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 30 maydagi 76–sonli qaroriga asosan tuzilgan.

Korxonaning Ustav fondiga ikki tomondan 50 % dan ulush qo'shilgan bo'lib, umumiy miqdori 6,42 mln. AQSH dollari, 642000 dona aktsiya har birining narxi 10 AQSH dollaridan. Ularning 50 % – "KM&I Co. Ltd", 50,0 % (3210ming AQSH AQSH dollari, 321000dona aktsiya)– O'zbekiston, jumladan "O'zavtosanoat" aktsiyadorlik kontserniga – 45,2 % (2904 ming AQSH dollari, 290400 dona aktsiya) va "Andijon Irmash" OAJga 4,8 % (306 ming AQSH dollari 30600 dona aktsiya) tegishli.

«Uz-Tong Heung Co» qo'shma korxonasi 2011 yili jami 235200 komplekt yengil avtomobillar uchun o'rindiqlar tayyorlagan. SHundan 25825 komplekt Damas rusumli avtomobillari uchun 85394 komplekt Neksiyaga , 24157 komplekt, Lasetti hamda 54244 Kobalt va Matiz-delyuks avtomobillari uchun esa 25825 komplekt o'rindiq ishlab chiqargan. Neksiya avtomobillariga ishlab chiqargan o'rindiqlar salmog'i 39,4 % ni tashkil qilgan. 2012 yili korxona jami 244600 komplekt o'rindiqlar ishlab chiqargan. 2013 yili esa 248500 komplekt o'rindiqlar tayyorlagan.

«Uz-Tong Heung Co» qo'shma korxonasining moliyaviy holatini taxlili ko'ra, korxonaning 2011 yili jami daromadi 59,3 mln.AQSH dollarni tashkil etgan. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 45,5 mln.AQSH dollarga teng bo'lgan. SHu yili korxonaning yalpi moliyaviy natijasi 13,80 mln.AQSH dollargan yoki rentabelligi 10,2 foiz teng bo'lgan. 2012 yili korxonaning yalpi daromadi 18,37 mln.AQSH dollarga teng bo'lgan. Korxonaning foydalilik darajasi 12,50 foizni tashkil etgan. 2013 yili esa korxonaning moliyaviy natijasi 114,49 %ga teng bo'lgan. Bu 2011 yilga nisbatan 137,25 foizga, 2012 yili esa 2011 yilga nisbatan esa 122,55 foizga oshgan.

«Uz-Tong Heung Co» qo'shma korxonasining xodimlari soni 2011 yili 477 nafarni tashkil etib, ulardan 344 nafari ishchilar bo'lib jami xodimlarning 72,1 %ni, 37 nafari (7,7%) muxandislar va 26 nafari (5,4%) masterlardan iborat bo'lgan. 2012-2013 yillar xodimlar soni ortib borgan. 2011

yili ishchilar soni 344 nafar bo'lgan bo'lsa, 2012 yili esa 450 nafarni tashkil etgan. Bu 2013 yilda esa ularning soni 500 nafarga yetgan. 2011 yilga nisbatan 145,3 foizga yoki 156 nafarga ko'paygan. 2010 yilda qo'shma korxonaning ishchi kuchlariga bo'lgan asosiy ehtiyoji 554 nafar bo'lib, bu yili xizmatchilar soni 9 nafarga kamayib, ularni o'rniga tsexlarga kasb xunar kollejini bitirgan yigit va qizlar qabul qilindi, yil davomida armiya safiga chaqirilgan (4 kishi) va o'z ihtiyoji bilan mehnat shartnomasini bekor qilgan (12 kishi) va boshqa turli sabablar bilan ishdan ketgan ishchi – xodimlar hisobiga yana 28 nafar ishchi kuchiga qo'shimcha ehtiyoj sezildi. Andijon mehnat bozorida ishchi kuchini taklif talabdan ko'ra katta bo'lgani uchun, ularning o'rniga kollejlarni bitirgan yoshlar qabul qilindi. SHu yili kasanachilik bo'yicha ham 7 nafar ishchi qabul qilindi. 2013-yilda 2011-yilga nisbatan 3 taga ortgan ya'ni 101,6% ni tashkil etgan bo'lsa 2012-yilga nisbatan esa xodimlar sonida o'zgarish bo'lmagan, lekin xodimlarning sifat darajasi yaxshilangan ya'ni oliy ma'lumotlilarning hissasi ko'paygan.

Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki qo'shma korxona biznes rejasi kelgusida takomillashtirishga muxtoj. Sababi davr o'tishi bilan biznesga qo'yilgan talablar o'zgaradi va muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Bizga ma'lumki, ko'pchilik bo'lib ishlab chiqilgan reja eng optimal hisoblab qinadi. SHuning uchun ham Biznes reja ishlab chiqish uchun ham maxsus guruh tashkil qilishni tavsiya etamiz. Ushbu guruhni shakllantirishda, Amerikalik olim Andre De Le Portening guruh me'yorlaridan foydalanishni tavsiya etamiz.

Shu bilan birga Biznes rejaning tashkiliy strukturasiga ham quyidagi o'zgarishlarini taklif qilamiz:

Biznes rejaning marketing bo'limining asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo'lishini tavsiya etamiz:

— Korxonaning o'tgan davrdagi faoliyati, mulk shakli darajasi bugungi kundagi va kelgusidagi maqsadi;

— Faoliyat turi (chakana savdo, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish);

Yuqoridagi yutuqlar bilan bir qatorda ayrim kamchiliklar ham uchrab turibdi.

Bularni bartaraf etishda biznes rejaning o'rnini beqiyosdir.

Shu boisdan biz „Uz – Tong Xong So ” faoliyatini samarali boshqarish yuzasidan quyigani tavsiyalarimizni beramiz:

1. Iqtisodiyotni tartibga solishda iqtisodiy vositalar rolini yanada oshirish;
2. Biznes rejalarni korxonaning boshqarishni asosiy vositasi sifatida qarash;
3. „Uz – Tong Xong So ” ko’shma korxonasida rejalashtirishning uslubiy asoslarini takomillashlirish;

4. „Uz – Tong Xong So ” qo’shma korxonasida ishlab chiqarishda ishchi guruhlar rolini yanada oshirish;

5. „Uz – Tong Xong So ” qo’shma korxonasi biznes rejalarda asosiy e’tiborni mahsulotga tavsifnoma berish, bozor holatini tahlil etish, marketing masalalariga qaratish;

6. biznes resurslarimizni amaliyotga tadbiq e’tilishi „Uz – Tong Xong So ” qo’shma korxonasini bozordagi mavqeini yanada oshiribgan qolmay, balki Prezidentimiz I.A.Karimovning 2014 yil yuqori sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etib, o’zini oqlamagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo’ladi” deb so’zlagan nutqidagi vazifalarni bajarilishini hal kafolatlaydi.

Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida, bitiruv oldi amaliyotini o’tash davomida bizga yaqindan yordam bergan va qimmatli maslahatlarini bergan «Uz-Tong Heung Co» qo’shma korxonasi tajribali mutaxassislari va rahbariyatiga o’z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.; «O’zbekiston» 2001 yil.
2. I.A. Karimov. Biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug’ maqsad yo’q. T.; «O’zbekiston» 2001 yil.
3. I. Karimov. «2014 yil yuqori o’sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o’zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo’ladi». “Xalq so’zi” № 13 18.01.2014y.

4. I. Karimov. «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi». «Xalq so'zi» №16 22.01.11y
5. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” - T.: «O'zbekiston», 2009
6. I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» - T.: «Ma'naviyat», 2008.
7. I.A.Karimov «Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir» - T.: «O'zbekiston», 2007.
8. I.A.Karimov. «O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi». - T.: «O'zbekiston», 2005.
9. I.A.Karimov. «Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat» - T.: “O'zbekiston”, 2006 y.
10. I.A.Karimov. «Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish-barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir»- T.: «O'zbekiston», 2007.
11. I.A.Karimov. «Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida»-T.: «O'zbekiston», 2008.
12. Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari - T.: «Mehnat», 1997.
13. Abdurahmonov O' va boshqalar. Personalni boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 1998 y.
14. Zaynutdinov SH.N. va boshq. Menejment asoslari. T.; «Moliya», 2001
15. M.SHarifxujaev, Yo. Abdullaev «Menejment» Darslik T-«Uqituvchi» 2001 y
16. И.Герсхикова «Менеджмент». Усхебник-2 изд, перераб. и доп. М. Банки и Биржи, Юнити 1996г.
17. В.В. Глухов. «Основу менеджмента» Усхебно-справосхное пособие СПб.- Специальная литература 1995г.
18. М.Мескон, М.Альберт, Ф.Хедоури. «Основы менеджмента» М.1992
19. Zaynuddinov SH.N. va boshqalar. Menejment asoslari. -T.: Moliya, 2001.
20. Виханский О. Наумов А. «Менежмент»- М.: Гардарики, 2001.
21. Ortiqov A.A. Yuldasheva SH. M «Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish» - T.: TDIU, 2009.
22. Tursunxo'jaev P.M. “Korxonalarda ishlab chiqarish va rejalashtirish” - T.: «O'zbekiston», 1997.
23. SHarifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. T.: «O'qituvchi», 2001.
24. Ashurov M.S.«Tadbirkorlik risklarini boshqarish va uning ahamiyati». Namangan, «Tezislar to'plami», 2002.
25. Ashurov M.S., SHokirova Yu.S. «Tadbirkorlik faoliyatida risk va uni boshqarish». Farg'ona. FarDU ilmiy xabarleri, 2001.

26. Шепеленко Г.И. Экономика: организация и планирование производства на предприятии. - Ростов на -Дону, 2000
27. «Экономическое обозрение», март,май 2013, 14 с.,№11(62) 2012.
www.reviev.uz www.cer.uz.
28. Экономика Узбекистана. Аналитический обзор за 2008-2012 гг. (Интернет сайт – www.ceer.uz, www.bearingpoint.uz, www.pea.uz.)
29. «Uz-Tong Heung Co» qo'shma korxonasining arxiv xujjatlari, statistik va moliyaviy ma'lumotlari;
30. <http://www.budgetrf.ru/>
31. <http://www.press-service.uz>
32. <http://www.gov.uz/>
<http://www.bearingpoint.uz/>